

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI
FA'KULTETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA NAZARIYASI VA AN'ANAVIY
IJROCHILIK KAFEDRASI**

**“O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYO QOMUSIY
OLIMLARINING MUSIQIY-IJTIMOY PEDAGOGIK
QARASHLARI”**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: kunduzgi bo'lim talabasi Karimov A.O.
Ilmiy rahbat: dots. N.S.Kiyamov

Malakaviy bitiruv ishi musiqa nazariyasi va an'anaviy
ijrochilik kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ___maydagi majlisida muhokama
qilindi va himoyaga tavsiya etildi (Bayonnoma №10)

Kafedra mudiri:

kat.o'qit. Sh.N.Mustafoev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning
2014-yil ___iyundagi majlisida
Himoya qilindi va ___foizga baholandi
(Bayonnoma №)
YaDAKraisi:
A'zolari:

MUNDARIJA:

“O’RTA ASRLARDA O’RTA OSIYO QOMUSIY OLIMLARINING MUSIQIY-IJTIMOIIY PEDAGOGIK QARASHLARI”

KIRISH.....

I-BOB. O’zbekistonda xor san’atining rivojlanish tarixi.....

1.1. O’zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmida jamoa bo’lib kuylashning
rivojlanishi.....

1.2. Xor san’ati, jamoani estetik ruhda tarbiyalash va ma’naviy dunyosini
boyitish vositasi sifatida.....

1.3. Bolalar xor jamoasini tashkil etish metodlari.....

II-BOB. Barkamol avlod tarbiyasida xor san’atining tutgan o’rni.....

2.1. Maktabda sinfdan tashqari mashg’ulotlarning ommaviy va to’garak shakli.

2.2. Bolalar xor jamoasida ijro shakllari, vokal ko’nikmalarini ishlash uslublari.

2.3. Xor jamoalari bilan ko’p ovozda kuylash malakalarini o’stirish uslublari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....

Mavzu: “O’rta asrlarda O’rta osiyo qomusiy olimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari”

REJA:

Kirish

I-bob. O’rta asrlarda yashab ijod etgan O’rta Osiyo qomusiy olimlari ilm fan rivojining tarixiy nazariy asoslari.

- 1.1. O’rta asrlarda ilm fan rivojini tahlil etishning pedagogik, musiqiy sozlar to’g’risidagi ijtimoiy qarashlari.
- 1.2. O’rta asrlarda ilm fan rivojini o’rganishning pedagogik imkoniyatlari.

II-Bob: O’rta Osiyoda yashab ijod qilib o’tgan mutafakkirlarning jahon fani va madaniyatiga qo’shgan hissasi.

- 2.1. Musiqa qo’shiqchilik madaniyatimiz tarixidan.
- 2.2. Abu Nasr Forobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Komil insonni tarbiyalash-umumbashariy g'oya. Davlatning qudrati – sog'lom fikrli, bilimli, Vatan ravnaqi uchun jonini ayamagan insonlar qo'lida. Bunday insonlar, albatta milliy g'oya va milliy g'urur ruhida tarbiyalangan komili insonlardir. Shu bilan birga, har bir xalqning, millat va ellatlarning o'zlari intiladigan komillik timsolari bo'ladi. Bularga Alpomish va Barchinoy, Farhod va Shirin kabi qahramonlarni misol keltirish mumkin. Ular xalqning o'z farzandlarini erkin fikrli, mard, g'uruli, sog'lom, barkamol va ozodlik yo'lida barkamol qilib tarbiyalash orzularini ifodalaydi.

Shuningdek, muayyan tarixiy davrlarda, xalq taqdirida beqiyos o'rin tutgan buyuk zotlar, qomusiy olimlar va mutafakkirlar ham mukammal fazilatlar timsoliga aylanadilar. Masalan, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, botirlik, rahbarlik borasida, Imom Buxoriy, Imom Modrudiy, Najmiddin Kubro kabi aziz avliyolarimiz din va diyonat bobida, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz donishmandlik insonparvarlik borasida barchamiz uchun komillik timsoliga aylanib ulgurgan.

Inson chuqur bilimli, dono, aqilli bo'lishi uchun esa uning e'tiqodi sog'lom bo'lishi zarur. Zero sog'lom e'tiqod egasi doimo ezgulik sari intiladi, nomardlik, pastkashlik va yovuzlikka qo'l urish emas, hatto ular haqida eshitishni ham o'ziga or bilib, ularga qarshi kurashadi.

E'tiqodni shakllantirish – inson ma'naviy tarbiyasining tarkibiy qismi "...ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin"¹

Mustaqil yurtimizda sog'lom e'tiqodli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shularni inobatga olgan holda, yoshlikdan bolalarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash zarur. Buning uchun o'quvchi-yoshlarni umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar asosida tarbiyalash, ma'naviy madaniyatni shakllantirish

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008 yil. 28 b.

imkoniyatlari mavjud. Bunda “Musika madaniyati”, “O’qish”, “Odobnoma”, “Konstitutsiya alifbosi”, “Ma’naviyat va ma’rifat asoslari” va bir qator tarbiyaviy tadbirlarning o’rni benihoya katta. Bu fanlar orqali o’quvchilarda milliy g’uru, milliy g’oya, sog’lom fikrli e’tiqodini shakllantirishda reja asosida mashg’ulotlar, fanlarning ma’lum bo’limlari yuzasidan muhokamalar, sinfdan tashqari mashg’ulotlar va tarbiyaviy tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Masalan, “Musika madaniyati”, “Odobnoma” fanlari darslarida o’quvchilarda vatanparvarlik, mardlik, go’zallik, mehr-oqibat, hayo, iymon, salomlashish, kiyinish, so’zlashish odoblari kabi ijodiy xususiyatlarni shakllantirish imkonini yaratadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek “... Mustaqil O’zbekiston kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligida namoyon bo’ladi. Biz uchun milliy qadriyatlar, xalqimizning ruhini baland saqlash, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy vazifa bo’lib qolishi kerak.”²

Dunyoviy va diniy ta’limlardagi qarashlar bu masalada umume’tirof etilgan pedagogik tamoyillar bilan uyg’undir. E’tiqod barcha dinlar va davrlarda kishilik jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ta’sir etib kelgan. E’tiqod g’oyaviy qurol vazifasini o’taganini, mustaqillik va ozodlik uchun kurashda odamlarni birlashtiruvchi, ma’naviy rag’batlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo’lganini kuzatish mumkin.

Islom dinining insoniyat madaniyati rivojiga qo’shgan ulkan hissassi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaqqol ko’zga tashlanadi. Binobarin, O’zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganlaridek, “... Ko’hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim adolatlarni o’z-o’zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko’paytirib, yomonlaridan xolos bo’lishga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so’z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo’lgan. Uni og’ir-og’ir sinovlarga bardosh berishga, yorug’ kunlarga intilish, yashashga da’vat

²Karimov I.A. Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir. Toshkent: O’zbekiston, 1995 yil 241 b.

qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat aodamlarga o'z navbatida kuch-quvvat bag'shlagan, bir-biriga mehr-oqibatni oshirgan".³

Yuqoridagi mulohazalar ham islom diniga aloqador masalalar va tarbiya muammolariga nisbatan hamisha dolzarb bo'lib qolganini ko'rsatadi. Bu esa umuminsoniy tarbiya masalasini pedagogik-psixologik, musiqiy ijtimoiy, musiqiy sozlar, madaniyat va dinshunoslik, musiqashunoslik fanlari nuqtai nazaridan bitiruv malakaviy ishini interaktiv tadqiq qilishni talab etadi.

XXI asrda inson tarbiyasiga har qachongidan ham katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident I.A.Karimov o'z ma'ruzasida shunday deydi: "... insoniyat o'zi yaratgan umumbashariy muammolar, uning o'ziga xavf tug'dirayotgan tahdidlardan faqatgina axloq me'yorlaria tayangan holdagina chiqib kecha olishi mumkinligi asoslab berilgan. Shunday ekan, bugungi murakkab ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni ilmiy – amaliy jihatdan atroflicha bitiruv malakaviy ish sifatida tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholining turli qatlamlariga bo'lgan ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid bo'lgan ma'naviyat, madaniyat bayrog'i ostida kirib kelayotgan zararli g'oyalar va tahdidlarining mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat anashunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sabit tura olishga qadar bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin."⁴

Ma'lumki, o'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarning pedagogik-psixologik, ijtimoiy, musiqiy ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik qarashlar xalqimizning asrlar osha shakllangan milliy tarbiya an'analari bilan uyg'unlashib, ulkan ummon, ulkan meros sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham uning ilmiy – pedagogik nuqtaiy nazaran qanday o'rin tutish, jumladan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari va imkoniyatlarini tadqiq etish har jihatdan dolzarbdir. Shuning uchun

³I.A.Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1995 yil, 206 b.

⁴Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008 126 b.

ham bilak qomusiy olimlarning va mutafakkirlarning ijtimoiy-pedagogik, musiqiy-ijtimoiy, musiqashunoslikka bo'lgan qarashlari bilan bog'liq nazariy muammolarni tizimli tadqiq etish yechimlari va ular ustida ishlash bugungi kunda dolzarb pedagogik zaruratga aylanmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sog'lom e'tiqodni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining axloqqa oid ilg'or g'oyalari muhim tarbiyaviy ahamiyatga molik. Xalqimiz ta'lim-tarbiya jarayonida boblar merosidan ularning pandnomalaridan, xalqog'zaki ijodi, musiqashunoslik, ijtimoiy-pedagogik oid materiallardan keng foydalanish orqali bolalarga milliy qadriyatlarga xos fazilatlarni ongi-shuriga singdirib, yosh avlodni ajdodlari izidan borishga o'rgatib kelinadi.

Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi, baxtga erishish haqida, Abu Ali ibn Sinoning musiqa to'g'risidagi risolasi, tadbir al-manozil, axloqqa oid risolalari, Yusuf Xos Hojibning "Kushdg'u bilag", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hubbat ul-haqayiq", Sa'diyning Guliston, Vaiz Kashifiyning, "Axloqiy muxsiniy", Alisher Navoiyning "Maxbub ul-kulub", Abduraxmon Jomiyning "Silsilatus zaxab", "Bahoriston" Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kabi asarlarida bolalar tarbiyasining mazmuni, vazifalari, uslublari bitiruv malakaviy ish sifatida atroflicha sharhlanib, turli hayotiy rivoyatlar, hikoyalar asosida ochib beriladi.

O'rta Osiyoda Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi ilmiy meroslaridan bahramand bo'lish, ilmiy asosda o'rganish va amaliyotda tadbqiq etish bolalar tarbiyasini yaxshilashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Sobiq sovet pedagogikasida ushbu mavzudagi tadqiqotlar daxriylik mafkurasi ta'sirida bir yoqlama ko'rinish olgan edi. O'sha davrlarda jamiyatda hukumronlik qilgan kommunistik mafkuraning yoshlar tarbiyasiga kuchli ta'sir o'tkazishi tabiiy edi. Shu sababdan mazkur bitiruv malakaviy ishda pedagogik adabiyotlar ilmiy nuqtaiy nazardan murojaat qilishga harakat qilinadi.

Yoshlarimizni eng avvaloma'nan sog'lom, milliy g'oyaga sadoqatli, sog'lom e'tiqod sohiblari etib tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov

asarlarida atroflicha tahlil etilgan. Xususan musiqashunoslik san'at, din va davlat munosabatlari, huquqiy demokratik davlatdagi ta'lim-tarbiya tizimining ma'naviy yuksalishida dinning o'rni masalalarida xulosalar aks etgan. Bu borada S.Abdullayev, A.Azimov, Sh.Yovqachov, M.Imonnazarov, I.Karimov, F.Karamatov, R.Obidov, A.Raxmatov, U.Uvatovlarning asarlarida talqin etilgan.

Rossiyalik sharqshunoslar N.Jdanov va A.Ignatenkolarning ilmiy izlanishlarida mavzuga oid manbalar keltirilgan.

O'zbekiston pedagoglari va psixologlari S.Annamuratova, R.Ahliddinov, S.Bulatov, H.Nurmatov, Q.mamirov, H.Hamidov, A.Jabborov, A.Zununov, M.Inomova, H.Yo'ldashev, J.G'aniyev, V.Karimova, U.Mahkamov, O.Ibrohimov, T.G'afurbekov, R.Yunusov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Ochilov, E.Seytxalilov, G'. Shoumarov, M.Quronov, E.G'oziyev, S.Hasanov, O.Hasanboyevlarning I.Qudratov, N.Tolibboyev, N.Valixo'jayevlarning tadqiqot ishlarida musiqashunoslik, ijtimoiy-pedagogik qarashlarning shakllanishida muhim bo'lgan tarbiyaviy, tarixiy, musiqa madaniyati, milliy-ma'naviy, pedagogik-psixologik masalalar o'rganilgan. Shuningdek, pedagogik olim X.Tillashevning monografiyasi bitiruv malakaviy ishimiz mavzuyiga yaqinroq bo'lib, unda O'rta Osiyolik qomusiy olimlarining hayotiy va faoliyati ancha mukammalroq yoritilgan.

Shunga asosan biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari" deb tanladik.

Tadqiqot ishining ilmiy rejalar bilan bog'liqligi. Bitiruv malakaviy ishi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Musiqa nazariyasi va an'anaviy ijrochilik kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liq. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonun asosida ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri – ta'lim berish jarayonida O'rta Osiyoda yashab ijod qilib ketgan qomusiy oximlarining musiqiy ijtimoiy – pedagogik, musiqashunoslik yo'nalishidagi qarashlaridan, ularning ilmiy merosidan foydalanish muammolarining o'rni va ahamiyatini belgilash, nazariy, ilmiy-uslubiy asoslarini izlashga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: O'rta asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyolik qomusiy olimlarining musiqiy – ijtimoiy pedagogik qarashlarini ilmiy nazariy tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Pedagogik, ijtimoiy, diniy, musiqashunoslik, psixologik, tarixiy, falsafiy adabiyotlardagi mavjud musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarni o'rganish;
- Qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlar ta'sirini aniqlash;
- O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarida mavjud bo'lgan pedagogik mohiyatini asoslash;
- Musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlaridan olingan fikrlarga qaratilgan pedagogik tajriba-sinovlarni tashkil etish;
- Musiqiy sozlar, ijtimoiy, pedagogik qarashlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Din ishlari bo'yicha qo'mita hujjatlari bitiruv malakaviy ishning siyosiy-huquqiy manbalari tashkil etadi. Qur'oni karim tavsiflari va xodisi shariflarining inson tarbiyasiga oid sharhlari, musiqiy, ijtimoiy, pedagogik fikrlar, Prezident I.A.Karimov asarlarida musiqaga oid fikrlarida bayon etilgan yosh avlodni tarbiyalash, odob-axloq, madaniyat va sog'lom e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan asarlaridagi mavzuga doir qimmatli fikrlar, yangicha yondoshuvlar ishning nazariy asoslarini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: Bitiruv malakaviy ishda og'zaki so'rovlar, interv'yu, kuzatuv, o'quvchilarning og'zaki va yozma fikrlarini o'rganish, pedagogik eksprement, matematik-statistik uslublar qo'llanilgan. Shuningdek, tizimlilik, umumiy aloqadorlik, rivojlanish, tarixiylik, qiyosiy tahlil kabi uslublar ko'zlangan maqsadga erishish, belgilangan vazifalarni muvoffaqiyatli hal etishda asos vazifasini o'tadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti:O'rta asrlardayashab o'tgan O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy sozlar to'g'risida pedagogik qarashlarida mavjud pedagogik fikrlar.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti:O'rta asrlarda yashab o'tgan, O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlari aks etgan manbalar, asarlar, turli tarixiy materiallar.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:Mazkur bitiruv malakaviy ishda musiqiy, ijtimoiy, pedagogik, diniy, tarixiy adabiyotlardagi mavjud musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlar tahlil etildi;

- Qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarga diniy-ma'rifiy olimlarining ta'siri izohlanadi;
- O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarida mavjud bo'lgan pedagogik mohiyat asoslanadi;
- Musiqiy sozlar, ijtimoiy, pedagogik qarashlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga qaratilgan ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati ilmiy maqolalar, konferensiyada chiqishlar mazkur mavzuni o'rganish ishlarining nazariy jihatlarini rivojlantirilganligi bilan tasdiqlanadi. Ishning amaliy ahamiyati tajriba-sinovlar tashkil etilganligi, musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga qaratilgan ilmiy-nazariy, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Ish natijalaridan o'qituvchilar, tarbiyachilar, musiqa madaniyati fanlari darslarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining joriy qilinishi:Bitiruv malakaviy ishning asosiy xulosalari 2010-2014 yillarda A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida o'tkazilib kelingan talabalar ilmiy konferensiyasidagi ma'ruzalarda, ilmiy-amaliy va uslubiy seminarlarda amaliyotda davrida ommalashtirildi.

Bitiruv malakaviy ishning sinovdan o'tishi:Bitiruv malakaviy ish 2010-2014 yillar davomida A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti musiqa

nazariyasi va an'anaviy ijrochilik kafedrasida bajarilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Bitiruv malakaviy ishni himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Pedagogik, musiqiy ijtimoiy, tarixiy, psixologik, diniy, falsafiy adabiyotlardagi mavjud musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlar;
2. Qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarini o'rganishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinovlar;
3. O'rta Osiyolik Qomusiy olimlarning musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlarida mavjud bo'lgan pedagogik mohiyat;
4. Musiqiy, ijtimoiy, pedagogik qarashlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy tavsiyalar.

Bitiruv malakaviy ishning e'lon qilinishi: Bitiruv malakaviy ish mavzusi va uning amaliy natijalari muallifining ilmiy konferensiyadagi chiqishlari o'z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, har bir bob uchun xulosalar, umumiy xulosalar, ilmiy-nazariy tavsiyalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, Bitiruv malakaviy ish ---bet, sahifani tashkil etadi.

I-bob. O'rta asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyo qomusiy olimlari ilm fan rivojining tarixiy nazariy asoslari.

1.1. O'rta asrlarda ilm fan rivojini tahlil etishning pedagogik, musiqiy sozlar to'g'risidagi ijtimoiy qarashlari.

Jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismi sifatida taraqqiy etib kelgan musiqaning shaxsni axloqan barkamol, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda juda muhim va zarurati baland omil ekanligi turli tarixiy davrlarda ta'kidlanib kelingan bo'lib, keyinchalik bu mo'jizaviy voqealikka nisbatan ijtimoiy talab-ehtiyojlarning ortib borishi – uning mustaqil fan tarzida shakllnib, ilmiy nuqtai-nazardan o'rganilishiga olib keldi. Markaziy Osiyo alloma-olimlari tafakkurida mazkur fanning pedagogik ilmlar sirasida ilk talqin etilishi esa, sharq xalqlari madaniy hayotining yuksak cho'qqisi-Sharq Uyg'onish davriga to'g'ri kelib, undagi ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy tizimda yuzaga kelgan ma'naviy muhit – bu muhim xodisaning ro'y berishiga yetarlicha shart-sharoit yaratib bergan edi.

Ma'lumki, VIII-IX asrlarning o'rtalarida juda kuchli imperiyaga aylangan arab xalifaligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlarining olib borilishi natijasida Markaziy Osiyoda mustaqil feodal davlatlar – Somoniylar, keyinchalik Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlati yuzaga keldi. Ta'kidlash lozimki, bu davlatlar o'rtasida nizoli urushlar va buning oqibatida feodal tarqoqlik davom etib turgan bo'lsada, ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgargan, yetarli xalqlar mustamlaka zulmida qutilgan va mustaqil rivojlanish yo'lida kirgan edi. Bu davrda rivojlangan deodal munosabatlar qaror topib, hozirgi Buxoro, Marv, Samarqand, Urganch, Termiz, Xujand kabi ko'plab shaharlarda hayotning barcha sohalarida ilg'or o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, me'morchilik usdi va bu kabi rivojlanish ma'naviy-madaniy yuksalish, ilm-fanning taraqqiy etishiga keng yo'l ochib berdi. Markaziy Osiyo tarixida bu yangi davr – Uyg'onish davri deb atalib, undagi madaniy yuksalish – avvalo qahramonlikdan qutilish, mustqail tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil-ma'naviylik – mustaqillikning samarasi bo'lib yuzaga keldi. Ta'kidlash lozimki, mazkur davr ijtimoiy-madaniy hayotida yangi unsurlarning tarkib topishi va o'ziga xos xususiyatlarda taraqqiy

etishida – arab istilochilari tomonidan joriy etilgan islom dinining ta'siri juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Islom faqat diniy aqidalar tizimidagina emas, balki dunyoviy, ma'naviy madaniyatning muhim yo'nalishi sifatida turli sohalarni ham o'ziga bo'ysundirib bordi. Keyinchalik esa, turli xalqlar an'analarning o'zaro ta'sirini kuchaytirib yubordi va natijada “musulmon madaniyati” deb nomlangan yangi madaniy qatlam vujudga keldi. Unda Hind, arab, Eron, Rim, yunon xalqlari qatorida Markaziy Osiyo xalqlari ham o'zining madaniyati bilan alohida o'rin egalladi. Ayniqsa, bu davrda Markaziy Osiyo ilmi- dunyo miqyosida birinchi o'rniga chiqqanligi manbalarda qayd qilinadi. Darhaqiqat, Uyg'onish davrining IX-XII asrlarida falsafa, mantiq, tibbiyot, tilshunoslik va boshqa fanlar juda taraqqiy etdi. Bu fanlarning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilib, yirik qomusiy asarlar yaratildi. Bu davr – Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, ar-Roziy, Beruniy kabi daholarni dunyoga tanitdi. Ular qo'lga kiritilgan yutuqlar – keyingi asrlarda jahon ilmining taraqqiy etishini belgilab berdi. Ta'kidlash lozimki, ilm-fanning bu kabi ravnaq topishi – avvalo, mahalliy xalqdan chiqqan namoyondalarning boy milliy madaniyat negizida shakllangan tafakkur va shu bilan boshqa xalqlar ilmiy merosining tanqidiy o'rganilishi va ijodiy o'zlashtirilishi natijasida ro'y berdi. Ammo XIII asrda mug'ullar istilosining boshlanishi bilan bu madaniy-ma'rifiy yuksalish tushkunlikka yuz tutib, boshqa sharq xalqlari qatorida markaziy Osiyo xalqlari ham yangi zulmga mahkum bo'ldilar va bu bosqinchilik harakati mustaqil Amir Temur davlatining tashkil bo'lishiga qadar davom etdi. Ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo tarixida bu kabi yirik mustaqil feodal davlatning shakllanishi va rivojlanishi keyinchalik mug'ullar tomonidan vayronaga aylantirilgan mamlakatda zaiflashgan ma'naviy-madaniy hayotning yuksalishida va taraqqiy etishida juda katta burilish yasadi. Manbalarda yozilishicha, Amir Temurning o'zi o'qimishli, savodxon va ma'rifatparvar inson bo'lgan va mamlakat taraqqiyotida, xalqning madaniy va ma'naviy kamolotida ilm-fan va ma'rifatning ahamiyatini juda qadrlagan. “... millati, irqidan qat'iy nazar, kasb-hunar egalari, ustalar, me'morlar, olimu-fuzalolar, adabiyot va san'at arboblari juda-juda qadrlar, ular bilan doimo maslahatlashar, ularning fikr va mulohazalariga doim quloq solar edi. Ma'naviy

madaniyat xodimlarining ishlashi yashashi va ijod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berardi.” Mazkur davrda al-Husayniy, Xo’ja Yusuf Andijoniy, ak-Omuliy, Abdulqodir Marog’iy, Behzod, Ulug’bek, Bobur, Sharafutdin Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Binoiy kabi buyuk ijodkorlar yetishib chiqdilar va ular o’tmishdoshlarining ta’limotlaridan zamonaviy ehtiyojlarni o’ziga xos yangicha sifatlarda qondirish yo’lida foydalandilar. Ta’kidlash lozimki, davr mazmunidan kelib chiqib, alloma-olimlar ijodida o’ziga xos ilmiy – uslubiy yo’nalishlarning yuzaga kelishi – ilm – fanning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratib berdi.

Uyg’onish davrining bu kabi madaniy yuksalish jarayoni – Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ijtimoiy hodisa sifatida taraqqiy etib kelgan musiqa san’atining ham fan sifatida shakllanishiga sharoit yaratib bergan edi. Mazkur fanning shakllanishida avvalo milliy an’analarga boy mahalliy – musiqiy madaniyat unsurlari, ularni o’zlashtirib rivojlantirgan xalq hofiz va sozandalari, ular yaratgan maktabda qo’llanilgan uslubiy yo’nalishlar asosiy g’oyaviy manba vazifasini o’tadi. Masalan, nafaqat Markaziy Osiyo, balki, butun sharqda bastakor, ijrochi-sozanda sifatida shuhrat qozongan Borbad Parviziylar musiqa ta’limoti, asrlar davomida mukammal turkum sifatida shakllangan 12 maqom tizimi, amaliyotda qo’llanib kelinayotgan turfa xil musiqiy sozlar, ijrochilik maktabi an’analari-mahalliy xalq hayotida musiqa san’atining juda taraqqiy etganligidan dalolat berib, aynan shu musiqiy meros negizida va boshqa xalqlar, xususan, yunon olimlari musiqiy-nazariy fikri bilan uyg’unlikda Markaziy Osiyo musiqa ilmi yuzaga keldi. Evklid, Nikomax, Platon, Aristotel, Aristoksen kabi olimlarning arab tiliga tarjima qilingan musiqiy risolalarini tahlil etib o’rgangan alloma-olimlar tafakkurida musiqa ilmining sharqona asoslari o’z kurtaklarini yoza boshladi. Musiqaning fan sifatida shakllanishida – uning muhim funksional xususiyati – shaxs dunyoqarashida axloqiy va estetik – tuyg’ularni shakllantira olish kabi tarbiyaviy qudrati asosiy omil qilib olindi va ilmiy xarakterda taraqqiy etib, pedagogik yondoshuvda o’rganilishiga asos bo’ldi. Ta’kidlash lozimki, musiqa ilmining pedagogik mohiyati qadim yunon olimlari ta’limotida ham alohida qayd etib

kelingandir. Xususan, Platon “davlatni mustahkamlash, yuksak g’oyalarni amalga oshirishning birdan bir vositasi tarbiya ekanligini qayd qildi” va ta’lim tizimining dastlabki va eng yuqori bosqichida ham musiqa ilmi boshqa fanlar qatorida o’rgatilishi lozim deb hisoblanadi. Aristotel esa musiqa fanini har bir bolaning barkamol tarbiya olishida juda muhim deb hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, qadim Yunonistonda musiqa ilmining o’zi 4 ta tarkibiy qism: garmonika, ritmika, metrika va organika, ya’ni cholg’ular haqidagi ilmlardan iborat bo’lgan. Cholg’ushunoslik sohasining (musiqiy sozlar haqidagi ilmning) umuman musiqa ilmi tarkibiga kiritilishi ham bejis emas edi. Zero, musiqa ijrodagina jonli bo’lib, uni tinglovchiga moddiylikda yetkazib beruvchi ikki vositaning biri (inson ovozidan tashqari) musiqiy sozdir. Ma’naviy omil deb qaralsa-da musiqani tashkil qiluvchi ohanglarning tartibli tizimi musiqiy sozlar vositasida vujudga keltirilib, inson tomonidan idrok etiladi, uning ruhiyatiga singib, o’z ta’sir kuchini o’tkazadi. Musiqaning badiiylik imkoniyatlari ko’p xollarda musiqiy sozlarning tuzilishi, unda shakllangan ijrochilik xususiyatlari bilan bog’liq holda shakllanadi. Shu tufayli yunon musiqa ta’limotida musiqiy sozlar musiqa bilan chambarchas bog’liq holda, uning qismi sifatida o’rganilgan va har bir tarbiyalanuvchi musiqa nazariyasi (garmonika, metrika, ritmika) bilan birga musiqiy soz sirlaridan (organikadan) xabardor bo’lishi shart hisoblangan. Ushbu an’ana keyinchalik, o’z mazmunini saqlagan holda Markaziy Osiyo musiqa ilmida ham davom ettirildi va yuqorida aytib o’tilganidek, pedagogik fikr namoyondalari tafakkurida musiqaning eng muhim funksional xususiyati – uning tarbiyaviyligi deb ta’kilanib, pedagogik tadqiqotlar predmeti sifatida keng o’rganib kelinishiga asos bo’ldi. Musiqaning sharqona nazariy – amaliy asoslari va pedagogik mohiyati ayniqsa, Uyg’onish davrining daholaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950 y.) tomonidan mufassal o’rganilib, fan predmeti – yaxlit tizimda tadqiq etildi. Uning musiqiy-ilmiy qarashlari 160 dan ortiq risolalari orasida “Kalomi fi-q musiqiy” (“Musiqa haqida so’z”), “Kitobi fi-n naqra muzofa ila-l ibqo” (“Ritmga qo’shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob”), “Kitobi al-musiqa al-Kabir” (“Musiqa haqida Katta kitob”) kabi asarlarda bayon qoldirildi.

Alloma musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini o'z asarlarida istifoda etib, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari qatorida musiqa ilmini tarbiyaviy fan deb ataydi: "Bu 4 fan – tarbiyaviy fan deb ataladi, chunki ular tufayli o'quvchilar tarbiyalanadi, ular o'quvchilarni yanada nazokatliroq qiladi va o'quvchilarga shundan keyin keladigan bilimlarni o'rganishi va o'qib olishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi". Ma'lumki, o'rganilayotgan davrda falsafa ikki asosiy bo'limga – nazariy va amaliy qismlarga ajratilgan. Xususan nazariy falsafaning asosiy bo'limlari uchta bo'lib, ular tabiat to'g'risidagi ilm, xudo to'g'risidagi ilm va ular o'rtasidagi oraliq fanlar hisoblanmish matematika ilmlaridir. O'z navbatida matematika to'rt xil: arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa fanlaridan tarkib topgan edi.

Forobiy ham musiqa ilmini matematika tarkibida o'rganib, mazkur ilmning o'quvchining mukammal bilimlarni olishda tayyorgarlik vazifasini o'tovchi boshlang'ich bosqichda juda muhim o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu ilmning mohiyati esa, alloma tomonidan shunday ta'riflanadi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi". Bu bilan Forobiy musiqa ilmini shaxs o'zida mujassam qilishi lozim bo'lgan axloqiy xislatlarni shakllantiruvchi tarbiya vositasi sifatida yuksak baholaydi.

Forobiy fikricha, musiqa insonni ma'naviy oziqlantiruvchi omil sifatida ham uning ruhiyatiga snigib kirar ekan, shaxsni ma'lum kayfiyatlar orqali u yoki bu maqsadlarga yo'naltirishi lozimdir. Aks holda musiqa shunchaki dilxushlik uchun qo'llanilib, uning tarbiyaviy ahamiyati yo'qoladi. Ruhiyat – insonning ichki dunyosidir va uning yetuklik darajasi singib boruvchi omillarning xarakteri bilan bog'liqdir. Musiqa esa, inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butunlayicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. Shunday ekan, musiqa tarbiyaviy omil sifatida ulkan ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi, uning ijobiy yoki salbiy ta'sir kuchi juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Alloma musiqaning tarbiyaviylik xususiyatini shunchaki

etibgina qolmay, balki fan predmeti sifatida uning nazariy va amaliy asoslarini ham ilmiy negizda talqin etdi. Musiqiy ilm, deb yozadi Forobiy, bir-birini to'ldiruvchi 2 qismdan iborat:

1. Musiqa nazariyasi.
2. Musiqa amaliyoti.

Musiqa nazariyotining vazifasi – tovushlarning xususiyatlarini va holatini, qanday tarzda namoyon bo'lishini, ularning soni va sifatini idrok qilish, ya'ni bilishdan iboratdir. Musiqa amaliyoti esa, ikkiga bo'linib, ohang yaratish va ijrochilik san'atini o'z ichiga oladi. Uning vazifasi – hissiy ta'sirchan ohanglarni vujudga keltirishdan iboratdir. Forobiy ta'kidlashicha, hissiy ta'sirchan ohanglar ikki xil vosita – ovoz va musiqiy sozlar orqali ijro qilinib, inson ovozi tabiiy musiqiy soz, inson tomonidan yaratilgan musiqiy sozlar esa, sun'iy vositalardir. Olim bu sozlarning birinchisining mukammal hisoblaydi. Ammo cholg'udan taraladigan musiqaning estetik jihatdan ham o'ziga xosligini ta'riflab, undagi badiiy xarakterning – shaxsda axloqiy qiyofa, ijodiy qobiliyatlar, go'zallik haqidagi tasvurlarning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etdi va aynan shu omil Forobiy ta'limotida musiqiy sozlarni ilmiy-nazariy yondashuvda o'rganilishiga sabab bo'ldi. Alloma “Musiqa haqida Katta kitob” ning maxsus bobini “Musiqa sozlar haqida” deb nomladi va musiqaning moddiy qurollarini o'rganishga bag'ishladi. Musiqiy sozlarni pedagogik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilishida ayniqsa tasnif tizimining qo'llanilishi – juda samarali natijalar berdi. Bu uslub qadim yunon musiqa ilmi an'alaridan bo'lib, sharqda uni ilk bor Forobiy qo'lladi. Bu bilan olim, Markaziy Osiyo musiqa ilmi tarkibida cholg'ushunoslikning keyingi rivojiga asos solib, uning ushbu ta'limoti Ibn Sino (IX-X asrlar), keyinchalik, al-Omuliy (XV asr), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) tomonidan qo'llanildi va yanada takomillashtirildi.

Tasnifga ko'ra, musiqiy sozlar tovush manbaiga qarab turlarga bo'lingan. Masalan, puflab cholinadigan sozlar yoki sozlar o'z navbatida, tashkil bo'lgan guruhlarda bir turdagi sozlar tovush hosil qilish uslubiga qarab yanada kichik guruhlariga bo'linadi. Ta'kidlash lozimki, olim musiqaning nazariy qismiga oid

tajribalarini ud, tanbur kabi torli sozlar ustida olib borgan bo'lib, bu o'sha davrda aynan torli sozlar boshqa turdagi sozlarga nisbatan ko'proq amaliy ahamiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Forobiy ham shu sababli risolada ushbu sozlarni alohida o'rganib, ulardagi badiiy – ijroviy imkoniyatlarning kattaligiga e'tibor beradi. Alloma qo'llagan tasnif uslubining mazmuni quyidagidan iboratdir.

1. Torni bo'laklarga bo'lib tovush hosil qilinuvchi sozlar (dastaga ega bo'lgan sozlar, masalan, ud, tanbur, g'ijjak va boshq.)
2. Ochiq torlardan tovush hosil qilinuvchi sozlar (dastasiz, tovush beruvchi qutiga ega bo'lgan sozlar, masalan, qonun).

Forobiy, ijrochilik san'atida cholg'u musiqasining xissiy-emotsional ta'sir kuchini har bir sozning tabiati bilan bog'laydi va ulardagi ijroviy-badiiy imkoniyatlarni tarbiyaviy-estetik xususiyat deb e'tirof etadi. Forobiy ta'limotida musiqa va musiqiy sozlarning bir-birini taqozo etib, yaxlit qamrovda o'rganilishi lozimligi ilmiy isbotlanib, asosli ravishda an'ana tusini oldi va uning izdoshi, alloma Ibn Sino (980-1037) ijodida bevosita davom ettirildi. Alloma dunyo aholiga avvalo tabib sifatida tanilsa-da, uning ta'lim-tarbiya haqidagi qimmatli mulohazalari ko'plab asarlarida bizgacha yetib keldi va o'z kuchini hozirgacha saqlab kelmoqda. Jumladan, alloma inson ma'naviy qiyofasining shakllanishi va tarbiyalanishida qo'llanuvchi muhim vositalardan biri – musiqadir deb hisoblanadi. Bundan tashqari, musiqaning ruhiyatga ta'sir kuchiga katta baho berib, uni – ruhiy kasalliklarni davolash uchun xizmat qiluvchi shifo manbai deb ta'kidlab o'tadi.

O'tmishdoshi Forobiy singari, Ibn Sino ham musiqaning tarbiyaviy xususiyatini chuqur anglab, uni boshqa fanlar qatorida puxta egallaydi va bu borada maxsus risolalar bitadi. Masalan, allomaning "Kitob ush Shifo" qomusiy to'plamiga kiritilgan "Musiqiy ilmlar to'plami", "Kitob un-Najot" qomusiy asariga kiritilgan "Musiqa ilmining qisqacha bayoni", "Bilimlar Kitobi" ning "Matematika" qismiga kiritilgan asari va bizgacha yetib kelmagan "Musiqa san'atiga kirish" risolalari shular jumlasidandir. Allomaning bizning mavzuimizga bevosita aloqador qimmatli mulohazalari – uning "Jome' ilm al-musiqiy" ("Musiqiy ilmlar to'plami") asarida mujassam bo'lgandir. Masalan, asarning kirish qismida, musiqiy

tovushlarning mo'jizaviy xususiyati to'g'risida shunday mulohaza yuritiladi: "Idrok etishga bo'lgan barcha narsalarning hammasidan tovush (phang-M.M) o'zining yoqimlili, bilan ajralib turadi. U idrok etiluvchi boshqa voqealıklardan shunisi bilan farq qiladiki, uning ayrim ko'rinishlari lazzat baxshida etsa, ayrimlari nafrat tuyg'usini yuzaga keltiradi. Demak, alloma, musiqiy tovushning umuman, inson ruhiyatiga ta'sir kuchini e'tirof etgan holda, undan qoladigan taassurotlarning turfa xil sifatlarga ega bo'lishini ham muhim jarayon deb biladi. Musiqaning aynan shu xususiyati Ibn Sino tomonidan tarbiyaviy deb mushohada etiladi, shu bilan birga musiqa tinglab, undan oziqa olishni esa, ma'naviy lazzatlanishning oliy ko'rinishi deb hisoblaydi, "Yuksak ma'naviy lazzatlanish – musiqiy tovushlar ko'ngilga o'tirganda ro'y beradi" deb fikr yuritadi Ibn Sino, "ma'naviy boy odam oliy lazzatdan bahramand bo'lsa, past olam hissiy lazzatga intiladi". Demak, musiqa ma'naviy kamollikka yetaklovchi vositalardan biridir, inson ma'naviy yetukligi esa – jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi qudratli kuch bo'lib, alloma ta'limotida musiqaning inson ma'naviy qiyofasining shakllanishi bilan bog'lab tahlil etilishi – fan predmetining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ham yoritib beradi.

Uyg'onish davrining ko'plab allomalari qatorida Ibn Sino ham musiqa ilmini matematik ilmlar sirasiga kiritadi, zero, olim, musiqiy ohanglar tovushlarning tartibli tizimidan tashkil topgan deb, bu boradagi nazariy tadqiqotlar uningcha ikki yo'nalishda:

1. Tonlar, ularning ohangdosh yoki noohangdoshligini tahlil qilish, ya'ni, garmonika.
2. Tonlar orasidagi o'zaro mutanosiblikni vaqt nuqtai nazaridan tahlil qilish, ya'ni ritmika kabi masalalarni yechishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Ularning har qaysisi o'zining boshlang'ich tavsifiga ega bo'lib, boshqa ilmlar, masalan, arifmetika, fizika va ayrim hollarda geometriya bilan bog'liqdir.

Manbalarda Ibn Sinoning u yoki bu musiqiy sozda mukammal ijro qilganligi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Ammo alloma musiqa ilmi tarkibida musiqiy sozlarni o'rganish an'anasini bevosita davom ettiradi va Forobiy singari

musiqaning ajralmas qurollari sifatida, o'z davrida qo'llanilayotgan musiqiy sozlarni tasnif tizimida o'rganadi. Ta'kidlash lozimki, musiqiy sozlarni tasniflashda o'tmishdoshi ta'limotiga asoslangan bo'lsa-da (tovush manbaining faoliyati asos qilib olinsada), uning yozishicha, "cholg'u asboblari – ishlatilishiga qarab bir-biridan farq qiladi". Ya'ni, Ibn Sino, musiqiy sozlardagi tovush manbaidan tashqari, ularni ijro etish usullariga e'tibor berdi, bir turdagi va bir guruhga mansub musiqiy sozlarning bir-biridan tubdan farq qiluvchi borligini e'tirof etdi. Masalan, tanburning ijro uslubi – g'ijjak jro uslubidan farq qiladi va buning oqibatida ularda tashkil bo'luvchi ohanglarning badiiy – estetik xarakteri ham turli sifatlarga ega bo'ladi. Har bir musiqiy sozning ruhiy ta'sirchanlik darajasi ham bir-biridan farq qilib, tinglovchi tasavvurida alohida, faqat o'ziga xos taassurot qoldiradi. Bu jarayon – qo'llanilayotgan musiqiy musiqiy sozning konstruktiv, morfologik, tembr-akustik, ijroviy imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Demak, musiqiy sozning texnik-ijroviy xususiyatlari – badiiy imkoniyatlarning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Ularni o'rganish esa musiqiy qurollarining badiiy – tarbiya vositasi sifatidagi imkoniyatlarini aniqlash imkon beradi.

Ko'rinib turibdiki, Forobiy va Ibn Sinoning musiqiy sozlarni o'rganish borasidagi qarashlari juda yaqin bo'lib, bu ayniqsa, tasnif tizimining mazmunida yaqqol namoyon bo'lgan.

Yuqorida bayon qilinganidek, ko'pchilik allomalar o'z risolalarida asosan torli sozlarni o'rganish bilan birga, ular vositasida nazariy masalalarni yoritishda foydalanib kelganlar. Bizningcha musiqiy sozlarning ushbu turiga alohida e'tibor berilishiga asos bor: torli sozlar tabiatan o'zlarining yasalishi, konstruktiv xususiyatlari, ijroviy imkoniyatlari, tembr-akustik jihatlari bilan boshqa turdagi sozlarga nisbatan mukammaldir.

Bundan tashqari, ularning amaliy mavqe'i boshqa turdagi sozlarga nisbatan bo'lib, insonning ijtimoiy hayotida o'ziga xos iste'mol o'rniga ega bo'lib kelgan. Bu esa, olimlar diqqatini doimo jalb etib, izlanishlar mazmunini belgilab bergan. Masalan, X asrda yashab ijod etgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (997 yil vafot

etgan) dek alloma o'z bilim xazinasini ayrim musiqiy sozlar (xususan torli sozlar) haqidagi qimmatli ilmiy mulohazalar bilan boyitib, musiqa ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgandir. Olim o'zining "Mafotix ak-ulum" ("Ilmlar kaliti") deb nomlanuvchi qomusiy to'plamining musiqa bag'ishlangan qismida musiqa ilmining predmeti, uning vazifalarini aniq ko'rsatib berdi va shu bilan birga uning tarkibida ud, g'ijjak, tanbur kabi sozlarning ijroviy – imkoniyatlari, ularda qanday mazmundagi asarlar ijro qilinishi va ulardan qoladigan badiiy taassurotlar tahlil ustida to'xtaladi. Xorazmiy o'z davrida ma'lum bo'lgan fanlarni qomusiy to'plamiga kiritib tasniflar ekan, ularni Shariat ilmlari – "ulum al-sharia" va "ulum al-ajam" deb arablarniki bo'lmagan, fanlarga ajratadi. Musiqa ilmi esa, Xorazmiy tomonidan, "ulum al-ajam" turkumida sanab o'tiladi va bu bilan alloma, mazkur fanning inson kamolotiga yetishuvida muhim vosita ilm ekanligini qat'iyon ta'kidlaydi. Zero, Xorazmiy davrida musiqa ilmining mohiyati turlicha talqin etilib, mazkur ilm predmeti o'zida ko'proq ilohiy mazmunni olib boruvchi voqealik sifatida ham ta'riflanib kelindi.

Musiqiy soz torlaridan yangraydigan ohanglar – inson tabiatiga mos ravishda tanlangan va yaratilgan deb fikr yuritiladi. Sharq pedagogikasida yaratilgan durdona asarlardan biri "Qobusnoma"da. Uning muallifi Unsurunmaoliy Kaykovus (XI asr) inson va uning topishi, ta'lim-tarbiya muammolariga bo'lgan qarashlarini bayon etib, tarbiyadan maqsad – insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir deb hisobladi. Qobusnomaning tibbiyot, astronomiya va geometriya ilmlariga alohida boblar bag'ishlangan bo'lib, olimning fikricha, bu fanlardan o'rganish – har bir yoshning vazifasidir, zero, ilm insonni har tomonlama yuksalishini ta'minlaydi. Xuddi shu ilmlar bilan bir qatorda yoshlar musiqa ilmini ham egallashlari zarurligi, unda faoliyat ko'rsatuvchilar esa, ijrochilik san'atining o'ziga xos axloqiy qoidalariga amal qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi. "Qobusnoma" ning 36 – bobi "Xofiz va musiqachilar haqida" deb nomlanib, unda musiqa san'atining ijtimoiy hayotdagi o'rni, unga munosabat, unda amal yurituvchi xofizu-sozandalar xofizu-sozandalar xulq-atvori, ularning ma'naviy qiyofasi haqida nasihatimiz – didaktik mulohazalar bildiriladi.

Alloma musiqaning ta'sirchanligi, shu bilan birga tarbiyaviyligi – insonda axloqiy xislatlarni shakllantira olish darajasi bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari surdi va bunda musiqa san'atida faoliyat ko'rsatuvchilarning (sozanda va xofizlarning) xulq-atvorini – muhim funksional ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri deb qaradi.

“Hamma vaqt og'ir yo'llarni chalaverma va hamma vaqt yengil yo'llarni ham chalaverma, chunki barcha yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir”. Kaykovus ijro etilayotgan musiqa – mazmunan inson tabiatiga mos kelishi lozim, shundagina uning ruhiy ta'sirchanligi oshadi deb hisobladi va san'atkorlarning diqqatini aynan shu jihatlarga qaratishi kerakligini ta'kidladi. “Majlisda o'ltirgan vaqtingda majlis ahliga qara, agar eshituvchi qizil yuzli mosh-guruch soqol bo'lsa (musiqa asbobibig – M.M) ikkinchi torida cholg'il, agar sariq yusli bo'lsa (musiqa asbobining – M.M) bo'm torida cholg'il, agar qora yuzli, savdoyi, oriqli bo'lsa, ko'proq (musiqani) uch torida cholg'il, agar badani oq va semiz chilpillagan nam bo'lsa, yo'g'on torda cholg'il. Chunki rudni (Musiqasi asbobini –M.M) odamning to'rt tabiati uchun muxayyo qilganlar”. Demak, olim, sozdagi torlarning har birida yangragan ohang xarakterini – inson fe'liga qiyoslaydi va uningcha, ijrochi bu bilan so'zsiz hisoblanishi lozimdir. Zero, san'atkor musiqani tinglovchi tomonidan idrok etilishi jarayonida ma'suliyatli sub'ekt-vositachi qatnashadi. Kaykovus rud sozining “mazmunini” zukkolik bilan anglay olgan va uni inson tabiati bilan bog'lab, nafaqat musiqa, balki musiqiy sozlardagi badiiy imkoniyatlarning insonda go'zallik tuyg'ularini shakllantira oluvchi xususiyatini didaktik uslubda istifoda etadi. Muhim – alloma o'z bilimlarini hayotiy – tarbiyaviy amaliyotga bog'lab tahlil etadi. Shu bois, Kaykovus merosidagi purma'no fikrlar xozirda ham yoshlarni axloqan tarbiyalashda qo'l kelib, o'z kuchini saqlab kelmoqda.

Markaziy Osiyo pedagogikasida Kaykovus singari san'atkorlarni ma'naviyat tarqatuvchilar sifatida – ijtimoiy hayotdagi o'rnini juda ob'ektiv tahlil etib, musiqa

ilmining taraqqiyotida ilmiy didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o'zbek adabiyoti, san'at shaydosi Alisher Navoiydir.

Navoiy butun ijodi, hayoti faoliyatini insonni tarbiyalash uni ma'naviy yuksaltirish, uning imkoniyatlari uchun keng yo'l ochib berishga bag'ishladi. Bobur Mirzo ham Navoiy faoliyatini ta'riflar ekan, shunday deb yozadi "Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va mukavviy ma'lum emaskim hargiz paydo bo'lmish bo'lgay. Usto Qulmuhammad Shayxi noyi, Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyasi va takviyati birla muncha tarqqiy va shuxrat qildilar". Satrlardan ayon bo'ladiki, Navoiy o'zining insonparvarligi bilan butun ziyolilar, shu jumladan musiqa san'atidagi iqtidorli sozandalarga ham doimo do'st murabbiy bo'lib ularning erkin ijodlariga rahnamolik qilgan.

Navoiyning musiqaga bo'lgan muhabbati, manbaalarga yozilishicha uning taxallusida o'z ramziy belgisini bergan. "Navo" atamasi musiqaga "ohang" iborasi bilan istihola qilinib, olim yashagan davr musiqa amaliyotidagi 12 maqomlarning biridir. Navoiy ushbu maqom turkumini mukammal o'rgangan va sevib tinglagan bo'lishi tabiiy. Zero, "Boburnoma" da yozilishicha Navoiy "peshrav" va "naqsh" amallarida chiroyli ohanglar bastalagandir. Bizga ma'lumki peshrav va naqshlar maqomlar tarkibidagi kuy tuzilmalaridir, bu esa, navoiy og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa shakl tamoyillarini chuqur o'zlashtirib uning yirik bilimdoni bo'lganligidan dalolat beradi.

Bizga ma'lumki sharqda musiqa – she'riyat bilan birga o'zaro bog'liq holda rivojlanib kelgan, she'riy satrlar shunchaki o'qilmagan balki, badihago'ylik uslubida musiqiy sozlar jo'rligida kuylangandir. Aynan shu an'ana adabiyotchilar ijodiyotida musiqa va musiqa sozlarga bo'lgan ilmiy- ijodiy qarashlarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Navoiyning bu boradagi qarashlari asosan uning "Mezon ul- avzon", "Mahbub ul-qulub", "Majolis ul-nafois" asarlarida mujassam bo'lgandir. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" (qalblar sevgilisi) nasriy risolasining IX- bobi (kitobning 1-qismida) "Ashulachi va cholg'uvchilar- mutrib va mug'anniylar to'g'risida" deb atalib, alloma o'tmishdoshlaridan farqli (Kaykovus bundan mustasnoh), musiqaning

ilmiyligining e'tirof etgan holda uni ko'proq ma'naviy ozuqa beruvchi san'at turi sifatida didaktik tarzda talqin qildi. Navoiy o'z qarashlaridan kelib chiqib, san'atkorlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning ma'naviyat taratuvchilari sifatida egallashi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlar haqida, ularning ijodidagi salbiy va ijobiy xislatlarni ob'ektiv tarzda tahlil etdi. Zero, Navoiy musiqaning ta'sirchanligi va shu orqali tarbiyaviyligi – san'atkorlarning aql idroki va ijrochilik salohiyati bilan bog'liq deb hisobladi. Masalan, uningcha “Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi tosh ko'ngil odamni ham maftun qiladi”, “Ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa, xushovozdan oziq oladi” shu sabab, “Har bir sozandaning kuyi dardliroq eshitilsa, uning chertishi dardli yurakka qattiqroq ta'sir qiladi” deb ta'kidlaydi.

Navoiy san'atkorlarning mahoratini musiqaning tarbiyaviylik xususiyatini yoritib beruvchi omillardan biri deb hisoblasa, musiqaning badiiy mazmunini moddiylikda tinglovchiga uzatib beruvchi vositalar sifatida musiqiy sozlarning o'ziga xos tabiatini mahorat bilan ta'riflab beradi. Masalan, “g'ijjak, deb yozadi alloma,- shovqinli mushoiralardan yashirinib, eng dardli musiqani ijro etishni yoqtiradi”, “chang va ud yuraklarni o'rtashni biladi”, “qonun ko'ngilni larzaga soluvchi”, “qo'biz – muhabbat kuychisidir”. Navoiy har bir musiqiy sozning tinglovchi tarbiyalanuvchi tasavurida qoldirgan obrazli taassurotlarini o'ziga xos yondoshuvda tahlil etish bilan, ulardagi ijroviy badiiy imkoniyatlarni so'z san'ati namoyondasi sifatida ifodali yoritib beradi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, o'tmish allomalar ta'limotida ilgari surilgan g'oyalardan biri musiqa va musiqiy sozlarni yaxlit qamrovda tahlil etish an'anasini o'ziga xos uslubda namoyon qildi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, so'z san'ati bilan musiqa san'ati o'zaro bir-biriga bog'liq tarzda rivojlanib, musiqa ilmining bir bo'lagi sifatida, “ilmu iko” bilan adabiyotda “ilmu aruz”, ya'ni musiqiy usullar va she'riy vaznlar nazariyoti doimo bir-biriga bog'liq fanlar sifatida o'rganib kelingan. Forobiyning izdoshlaridan Abu Rayhon Beruniy- she'r intizomli (tartibli)dir, shuning uchun ruh she'rga ko'proq intiladi, xuddi shunday ohanglar ham tartibga tushirilgan bo'lgandagina qalbga kuchli ta'sir etadi deb fikr yuritgan edi. Demak, tartiblilik she'rita singari ohangga

ham mansub bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi masalasi esa, doimo ilmu shoirlar diqqatini jalb qilib kelgan. Shu bois Navoiy ham so'z san'atida she'rning vazni bilan musiqiy ohangdagi ritmik o'lchovining o'zaro mutanosiblik xususiyatlari haqida ilmi mulohazalar yuritadi, bu esa allomalarning musiqiy nazariy ilmlarning ham bilimdoni ekanligining dalilidir. Ta'kidlash lozimki, Navoiy musiqa ilmining nazariy va shu bilan birga amaliy asoslarini chuqur o'rgangan va o'zlashtirgan bo'lsada, bu borada maxsus risolalar bitmagan. Ammo, ushbu ilmning jamiyat taraqqiyotidagi eng asosiy masalalardan biri – shaxsni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdagi muhim o'rnini xolisona baholab o'z zamondoshlariga ilmiy musiqiy risolalar yaratishni maslahat beradi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo musiqiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan alloma Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ning mashhur musiqiy risolasi yuzaga keladi.

Allomaning falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyot va musiqa sohalarida yaratgan asarlarida uning pedagogik qarashlari ham namoyon bo'lib unda asosan insonni kamol toptirish g'oyasi asosiy o'rinni egallagan edi. Alloma yoshlarning ilimli va tarbiyali bo'lishlari lozimligini ko'p marta o'qtiradi va zarur ilmlarni egallashga da'vat etadi:

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan

Zarur bo'lmaganing axtarib yurma

Zarurini hosil qilgandan keyin

Unga amal qilmay umr o'tkurma

Xuddi shunday zarur bilimlar sirasiga Jomiy musiqa ilmini ham kiritadi. Olimning ta'rif berishicha musiqa “xalqqa xizmat qiluvchi, ularning hayotini bezovchi ilmdir”.

Ta'kidlash lozimki, uyg'onish davrining alloma olimlari Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi olimlar musiqa ilmini matematika ilmi tarkibida o'rgangan bo'lsalar, Jomiy musiqa ilmining nazariy va pedagogik asoslarini mustqail fan tarkibida o'rgandi. Allomaning buyuk musiqiy risolasi esa murakkab mushqashunoslik tilida mukammal drajada yozilgan bo'lsada uni faqat shu sohaga tegishli asar deb bo'lmaydi. Zero, Jomiy tarbiyachi sifatida musiqaning pedagogik-

estetik jihatlarini ham ko'ra bildi va buni risolada izohlab berdi. Jomiyning estetik qarashlarini tadqiq etgan olim A.Qurbonmamedovning fikricha Jomiy, musiqani amalda "serqirra faoliyat ko'rsatuvchi voqelik" deb qaraydi. Haqiqatda, "Risolai musiqiy" bilan bevosita tanishish jarayonida amin bo'ldikki Jomiy musiqaning funksional xususiyatlarini ta'riflab ining "yanada ko'rkam mukammalliklarini yaratishning usuli", "oralisdagi muloqot vositasi" eranligini, tufa xil muhtojliklar va talablarni qondiruvchi imkoniyatlarni sanab o'tar ekan uning ijtimoiy-pedagogik mavqei juda katta ekanligiga e'tibor beradi.

Risola ikki qismdan iborat bo'lib, Jomiy nazariy tushunchalarni tahlil qilishdan oldin musiqa ilmiga ta'rif beradi: Bu ilm yunonlar tomonidan yaratilgan bo'lib tovushlar izchilligining ko'ngilga (ruhga) ta'sir etib yuksak lazzatlanishni vujudga keltirishi haqidagi masalalarni yorituvchi fandir. Demak, alloma talqinida musiqa ilmi – o'zining mazmun mohiyati bilan inson ruhiyatini oziqlantiruvchi ma'naviy omillarning asoslarini o'rganuvchi fan sifatida shakllangan. Alloma fan predmetining mohiyatini quyidagicha tahlil qiladi: musiqiy ton deb uning davomiyligini his etishga imkon beradigan tovushga aytiladi. Demak, Jomiy fikricha musiqiy tovush – inson tomonidan idrok etilish jarayonining o'zdayoq ma'lim mazmunga ega bo'lishi lozim. Zero, allomaning yozishicha doiraning yoki kaftlarni urib hosil qilingan tovush musiqiy ton bo'laolmaydi. Buning uchun har bir tovush o'z balandligida qola olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ya'ni zir (baland) yoki "Bum" (pst) holatlarini saqlay olasagina musiqiy ton bo'laolishi mumkindir.

Risolaning keyingi bo'limlari torni (musiqiy soz torlarini) qismlarga bo'lib, tonlar hosil qilish, ularning o'zaro munosabati 17 bosqichdan iborat tovush qator, ular o'rnashgan pardalar va ularni arab alifbosi harflari bilan belgilash uslubi, yuqorida aytib o'tilgan intervallarning tavsifiga bag'ishlanadi. Ta'kidlash lozimki, Jomiy o'z risolalarida musiqiy sozlarning tavsifi ustida alohida to'xtalmaydi. Ammo u Forobiy singari musiqiy tonlarni ijro qilishning ikki uslubi

- 1) Tomoq, ya'ni inson ovozi,
- 2) Sun'iy, ya'ni ixtiro qilingan musiqiy sozlar

ekanligini sanab o'tib, musiqiy tonlarning o'zaro munosabatini ya'ni musiqiy ohangning tashkil bo'lish jarayonini o'rganishda ikkinchi turdagi vositalarning amaliy jihatdan imkoniyatlari kengroq ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat musiqiy sozlarda tashkil qilish mumkin bo'lgan tovushlarni tartibga solish bir muncha yengil bo'lib, ayniqsa torli sozlar ilmiy tajribalarni olib borish uchun juda qulay tuzilma asboblardir. Masalan, alloma risolaning 14-bobida ud sozining tovush qator tizimini chizma orqali bayon qilinib, bu sozni – barcha sozlar orasidagi oliyjanob soz deb ataydi. Qadimda uning tori to'rtta: bum, maslas, masna va zir deb nomlanadi. Abu Nasr Forobiy esa deb yozadi alloma, yana bir yuqori baland torni qo'shadi va uni xodd deb ataydi. Uning sozlanishi har xil bo'lishi mumkin dedi Jomiy, ammo eng ko'p tarqalgan sozlanish turi – kvartadir.

Risolaning keyingi bo'limlarida esa mashhur 12 maqom turkumi (ovozlar, sho'balar), maqom ovoz va sho'balarning har biri o'ziga xos hissiy – emotsional ta'sir kuchiga ega ekanligi haqida ham fikrlar bildirib, Jomiy bunday deb yozadi: ushshoq, navo va busaliq kuch va shijoatni qo'zg'atsa, ovozlar bunday ta'sir kuchiga ega emas. Sho'balar orasida esa mashhur va nihovand xuddi shunday ta'sir kuchiga egadir. Shu tariqa Jomiy ladlarning (maqom, ovoz, sho'balarning) tinglovchi ruhiyatiga ta'siri natijasida to'rt xil kayfiyat vujudga kelishi mumkin deb hisoblaydi:

- 1) Kuch va shijoatni
- 2) Quvnoqlik va shodlikni
- 3) Qayg'u va hasratni
- 4) Hayrat va shodlikning qayg'u va sog'inch bilan uyg'unlashuvidan hosil bo'ladigan holatni.

Albatta, musiqiy tuzilmalarning bu kabi xususiyati-ularning mohiyatan inson ryhiyatiga ta'sir qilib, mo'jizaviy xarakter kasb etishini ta'minlaydi, zotan Forobiy ta'kidlaganidek, musiqa ilmining asosiy vazifasi- hissiy ta'sirchan ohanglarniyaratib ijro qilishdan iboratdir.

Shunday qilib, Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shdilar. Bundan ma'naviy-mafkuraviy, badiiy-falsafiy, ijtimoiy

ko'tarilish tasodifiy emas, aksincha u o'zining mustahkamtag zaminiga ega edi. Bu narsa eng avvalo turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining o'ta rivojlanganligi, ushbu hududning jahon madaniyatlari to'plagan, uchrashgan makonda mavjudligi, buyuk ipak yo'lining ahamiyatli jihatlari takomillashganligi bilan tavsiflanadi.

Ayni paytda, turkiy xalqlar ijtimoiy falsafasi, milliy mafkurasining ilk davrlardayoq shakllana boshlashi jamiyat a'zolaridagi yuksak va mustahkam g'oyaviy-badiiy sobitlik-bularning barchasi sharq uyg'oninsh davri mutafakkirlari ilmiy merosida musiqa ilmining jamiyat va uning a'zolari ijtimoiy tafakkurida katta o'zgarishlarni amalga oshiruvchi omil sifatida talqin etilishiga imkon yaratdi.

Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlari ilmiy merosida musiqa ilmining tarixi, uning didaktik tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etib, quyidagi xulosalarga kelishi mumkin:

1.Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan va o'ziga xos fenomen rolini o'ynagan uyg'onish davrida kuchli madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, badiiy-falsafiy rivojlanish sodir bo'ldi. Bu esa, o'lka xalqlari hayotida ijtimoiy hodisa sifatida taraqqiy etib kelgan musiqaning fan sifatida shakllanishida shart-sharoit yaratib berdi.

2.Mazkur davrdagi siyosiy- ijtimoiy tizimning mafkuraviy- ma'naviy muhitida shakllangan ilmiy pedagogik, musiqiy-estetik qarashlar, ya'ni mazkur davrning zamonaviyligi va yerli xalq madaniy hayotida asrlar osha uzluksiz tarqqiy etib kelgan milliy-musiqiy an'analarning uyg'unlashuvi, mahalliy-musiqiy unsurlar, ularni o'zlashtirib rivojlantirgan xalq hofiz va sozandalari, ular yaratgan maktablarda qo'llanilgan uslubiy yo'nalishlar musiqa ilmining shakllanishida asosiy g'oyaviy manba vazifasini o'tadi.

3.Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'lim va tarbiyaning yagona vazifasi-jamiyat talablariga to'la mos ravishda va yagina butunlikda, tinchlik va farovonlikda yashagan xalq haqli ideal inson tayyorlash deb tushundilar. Musiqa esa, inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari biln birga ma'naviy olamini butunlayicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladigan ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etildi.

4.Bu ilmning tarbiyaviylik asosi- ya'ni uning insonni ma'naviy kamol topishida muhim vosita sifatida e'tirof etilishi- uyg'onish davrida mazkur ilmni alloma- olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelishida asosiy yo'naltiruvchi omillardan bo'lib xizmat qildi. Ta'kidlash lozimki, mazkur davr alloma- olimlar ijodida musiqiy pedagog qarashlar o'ziga xos ikki uslubda talqin etildi:

- a) Musiqiy –nazariy (Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Jomiy ijodida) va
- b) Musiqiy-didaktik (Kaykovus, Alisher Navoiy ijodida).

Bundan tashqari, agar qomusiy allomalar musiqa ilmini matematika tarkibida o'rgangan bo'lsalar, uyg'onish davrining so'nggi asrlarida musiqa ilmi mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi.

5.Alloma-olimlarning qarashlarida musiqa ilmining mohiyatan pedagogik xususiyatga ega ekanligi ta'kidlanib, uning va amaliy asoslari ham bevosita shu negizda ishlab chiqildi. Masalan, musiqiy tovushning nazariy asosi – uning inson tomonidan idrok etilishi va bilish jarayoni bilan bag'lanib o'rganilgan bo'lsa, amaliy asoslari esa, musiqaning badiiy mazmunni olib boruvchi san'at turi sifatidagi xususiyatlari negizida ishlab chiqildi. Uyg'onish davrida musiqa ilmi tarkiban ilmu iko', ilmu ta'lif (al-musiqa, al-nazariya) va bastakorlik hamda ijrochilik san'ati (ak-musiqa, ak-maliya) ni qamrab olgan bo'lib, bu sohalarining har biri o'ziga xos uslubiy yondoshuvda mukammal darajada tadqiq etildi. Xususan, ijrochilik san'atida musiqiy sozlar, cholg'u ijrochiligining pedagogik mohiyatini o'rganish-alloma olimlar ijodida an'ana tusini oldi va Markaziy Osiyo pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida keyinchalik ham davom ettirildi.

Madaniy meros hamda ma'rifat-ma'naviy qadriyatlarni keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlaganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz, shirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish, e'tiqodini va xalqning o'z madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz,

o'tmishimizga, tilimizga bo'lgan hurmat-e'tiborni rivojlantirishi, xalq mehnati, vatanga muhabbat tuyg'usini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunda jamiyat ma'naviy rivojining murakkab va ko'p qirrali jarayoni ko'p jihatdan milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi bilan belgilanmoqda. Aynan shu sababli ham ta'lim tizimining isloh qilishdek katta va muhim ishda ajdodlarimiz tomonidan to'plangan yosh avlod tarbiyasiga oid ko'p asrlik tajribadan unumli foydalanish zaruriyati paydo bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotining ko'rsatgichlari shundan dalolat beradiki, shaxs madaniyati hamda ta'lim ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan birgalikda rivojlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari, turkiy xalqlar ilg'or pedagogik fikrlarni xalqning ilm-ma'rifatga intilishi, aql va idrok tantanasi, yorqin kelajak haiqdagi orzularini yaratibgina qolmay, balki saqlab qolgan va avlodan-avlodga boyitgan holda uzatgan.

Ba'zi tadqiqotlarda Sharq allomalarining ma'naviy merosi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Masalan, S.Hasanov o'z tadqiqotlarida Xorazmni antiq davr va o'rta asrlarda rivojlangan fan va madaniyat o'chog'i sifatida Misr, Iroq, Eron, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim bilan bir qatarga qo'yadi, zero, eramizdan avvalgi VI va eramizning I asrida Qo'yqirilgan qal'ada rasadxona mavjud bo'lgan, "Sabr – quvonch kaliti", "Bilim olish: dastlab achchiq, natijasi shirin", "Olijanoblik kaliti-bilim" kabi yozuvlar bitilgan kulolchilik buyumlari topilgan. Sharqshunos olim A.A.Freyman ta'kidlaganidek, xorazm tili XIII-XIX asrlardan keyin to'liq turkiy bo'lgan. Bu jarayon xalqning bilim, ma'rifatga intilishida yuksak ahamiyat kasb etgan, o'z navbatida, davlatning gullab-yashnashiga ta'sir ko'rsatgan. IX-XV asrlarda "Turonzamin", "Turkiston", "Movarounnahr" nomlari bilan tarixda mashhur bo'lgan qudratli davlat xalqlari jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotining oldingi saflarida turish baxtiga sazovor bo'ldi.

Ijtimoiy-pedagogik qarashlarni o'rganish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim tomoni shundaki, har bir olim-y tarixchi, faylasuf, huquqshunos, sharqshunos bo'lsin o'z qarashlari nuqtai nazaridan yondashib, ezgulik va baxt-saodatga erishish, shu yo'lda halol mehnat qilish, adolat va haqgo'ylik, poklik va keljak, yuksak hayotga erishish g'oyasini tahlil etadilar.

Masalan, A.Asqarov, U.Aleyov, H.Boboyev, S.Hasanov, B.G'afurov, B.Qodirov, N.Mallayev, S.Gambarov, A.Izmaylov, Q.Qodirov, M.Xayrullayev, N.Mahmudova va boshqalar shular jumlasidandir.

Abu Abdullo ibn Yusuf al-Xorazmiyning ilmiy-ma'rifatchilik faoliyatidagi asosiy xizmati tarixda Beruniydan keyin umumjahon fanlarini shariyat ilmidagi ajratib, har bir fanni umumlashtirib, ilmiy xulosalar qilgan, ilg'or g'oyalarni ilgari surganidadir. Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z asrlarida farzandlarni yaxshi tarbiyalash, ular bilim berishga katta ahamiyat berdi. Ularni o'z oldiga xolis niyat qo'yib, kelajakka ishonib yashash lozim deb ta'kidlaydi. Yomon odatlardan, ayniqsa, sharobxo'rlikdan saqlanish, go'zal odatlardan bahramand bo'lishga undaydi. Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy ijodiga I.Yu.Krachkovskiy qomusiy manba sifatida yondoshgan. U.I.Karimov, M.M.Xayrullayev, G.P.Mativievskayalar ham o'z ishlarida Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy asarida ilmlar tasnifining berilishi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlarni keltirganlar.

Shoir va mashhur alloma Muhammad Suxayliy (X asr) ta'lim va tarbiya bilan bevosita shug'ullangan, uning asarlaridan keyingi avlodlar tarbiya topgan. Bu asarlar O'rta Osiyo va umuman, dunyo xalqlari madaniyati va maorifi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ma'mun akademiyasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiyning "Yeatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr", Abu Nasr al-Utbiyning "Tarix al-yeamini", ibn al-Asirning "Komil fi tarix", ibn Xoliqning "Vafaqat al-ayan", Kaxaliyning "Mujdai al-muallifin", Ali Muhammadning "Qunduz al-ajdod", Muhammad Mahdiy al-Basiriyning "Fi-l-adab al-abbas" asarlari haqida zamondosh olimlarimizdan V.Al'vardita, K.Brokel'man, E.Videman, I.Yu.Krachkovskiy, I.Abdullayev, X.Tillashev, S.Hasanov, F.Babashev tadqiqotlarida ma'lumot berilgan bo'lib, pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash maqsadida kengaytirgan holda foydalanish lozim.

As-Salobiy o'zi yaratgan barcha asarlarda saxiylik, muruvvatlik, bilimlilik, yaxshi xulq-atvor, shirinsuxanlik va suxandonlik xislatlarini ulug'laydi. Masalan,

boshliqlarning ayblari haqida yozar ekan, Abu al-Aloning “Boshliq bo’lishlilikdan man qiladigan narsalarni faqat boshliqlardagina uchratganmiz, xolos. Bulardan birinchisi yoshlik: Abu Jahl mo’ylabi chiqmay turib, kurayshlarga boshliq bo’ldi...” degan so’zlarini bayon etadi.

“Notiqlik xislatlari va mukammal nutq sirlari” asarining mazmuni haqida Saolibiy kirish qismida “Kitobning ayrim qismlarida dunyodagi eng yorug’ yulduzlar, eng yuksak fazilatlar sohiblari bo’lgan asrimiz notiqlarining nasriy (iboralarini) yig’dim, ularning ayrim qismlarini, she’rlarini “Yatimat al-dahr” asarimda joylashtirgan amir-shoirlar asarlaridan namunalar, mashqlar keltirdim”, deydi.


Masalan, o’rta asr olimlarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlarida talaba-yoshlarning ma’naviy qiyofasi, sifatlari, aql va bilim, ijodkorlik xulq-odob, muloqot, insoniy munosabatlar, tinimsiz mehnat va mehnatsevarlik, sog’lom turmush kabi ma’naviy sifatlar ulug’lanib, bular inson va uning kamoloti, yuksak axloqiylik, bilimlilik, uning ko’p qirraligi va chuqurligi, sog’lom turmush tarzi, jismoniy salomatligi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, notiqlik san’atiga ham katta e’tibor berilgan. O’z ustida mustaqil ishlash, nutq savodxonligi ham muhim sanalgan. Bular ibn Miskavayxning “Dunyo xalqlari tajribasi”, “Abadiy aql”, as-Saolibiyning “Qiziqarli xabarlar”, “Metonimiya va mimika”, “Nutq sirlari”, “Mirzalar kitobi” va boshqa olimlarning ta’lim-axloqiy asarlari orqali hayotga joriy etilgan.

Birinchi guruhga muallif al-Buxoriy, at-Termiziy, al-G’azzoviy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlarini kiritadi. Ular inson abadiyligi uning yaxshi nomi, ezgu amalida deb ko’rsatadi. Shu sababli ma’naviyat mezonlariga bo’ysunib, insonni ezgulik va muruvvatga chorlaydi.

Ikkinchi guruhga Suqtor, Arastu, Diogen, Mork, Avreliy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abay Ko’nanboyev, K.Rerix, I.Kant kabilarning asarlarini kiritadi. Bu mutafakkirlar ma’naviy tushunchalarni insonning ma’naviy sifatlari jihatidan yoritadilar. Bu sifatlar insonlarning o’zaro munosabatlarida yaxshilik. Halollik, adolat, mehr-shafqat, o’zaro yordam kabilarni

tushunishga ko'maklashadi. Masalan, Forobiyning ta'kidlashicha, "o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina ma'naviy axloqli odam bo'la oladi".

Mazkur ilmiy tadqiqotlar va tahlillardan kelib chiqib biz tadqiqotimizni amalga oshirish modelini ishlab chiqdik:



O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning boy pedagogik merosi ulkan manba ekanligini, uni faqat pedagogika bo'yicha ma'ruzalarda to'laligicha o'rganish va o'zlashtirish mumkin emasligini, masalan, talabalar bilan qo'shimcha ishlash hamda tadbirlar jarayonida bu boradagi bilimlarni yanada boyitish mumkin.

1.2. O'rta asrlarda ilm fan rivojini o'rganishning pedagogik imkoniyatlari.

Mustaqillik milliy urf-odatlarini o'rganish, ajdodlarimizning boy madaniy va ma'naviy merosidan bahramand bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bunday siyosiy imkoniyat xalqning, davlatimizning xolis ravishda milliy tarixini o'rganish, qadriyatlarini va g'ururni anglash, milliy iftixorni tiklash hamda o'stirishda muhim o'rin tutadi.

Shu asosda, IX-X asrlarda Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy, madaniy vaziyatni tahlil qilishda asl manbalarga hamda olimlarimizning mustaqillik davrida amalga oshirgan va oshirilayotgan ilmiy ishlariga tayanishimiz lozim.

Tariximizni o'rganar ekanmiz, quyidagi manbani qayd etmay ilojimiz yo'q: sharqshunos olim A.Massening yozishicha, "...VIII-X asrlarda Xitoy ichki nizolar natijasida parchalanib, xonavayron bo'lib, tashqi dushmanlarga hech qanday

qarshilik ko'rsata olmay qolgan edi. Shuning uchun ko'chmanchilar faqat Xitoyga yurish qilar edilar, chunki g'arbda kuchli islom davlati mavjud edi.”

Bu so'zlar Movarounnahr haqida aytilmoqda. To'g'ri, o'sha vaqtlarda Movarounnahrda ham notinchliklar, o'zaro ziddiyatlar hukum surgan davr edi. Lekin, davlat boshqaruvi, siyosati nuqtai nazaridan haqiqatdan ham kuchli davlat edi.

Movarounnahrda IX asrda qishloq xo'jaligining dehqonchilik, chorvachilik turlari, savdo-sotiq bilan bir qatorda hunarmandchilik hamda sanoat ishlab chiqarishni ham rivojlanib bordi. Bu yerda qo'shni davlatlarga tarqalgan covun ishlab chiqariladi, shuningdek, parcha, qishloq kamzullar, teri, mis idishlar, qo'y juni, mo'yna, yelim, qilich, qalqon, sovut, gilam, qiyiq, mis qozon, qadahlar, igna, qaychi, ipak matolar, idishlar hamda mashhur Samarqand qog'ozi tayyorlanardi.

Shuningdek, Movarounnahr Sharqda ilm-fan, madaniyat, din, musiqa va san'at sohasining rivoji bo'yicha ham markaziy davlatlardan biri edi.

O'sha davrda islom dini va arab tili bilan bog'liq mashhur maktablar paydo bo'ldi, turli diniy oqimlar, so'fiylik nazariyalari, tariqat va tasavvuf yo'nalishlariga asos solindi.

Sharq “Uyg'onish davri” ham o'sha vaqtlarga to'g'ri keldi. Qanchadan-qancha maktablar yaratilar ekan, ilmiy asoslangan, rivoyatlarga tayanadigan, xalq an'analari va qadriyatlari asosida shakllanadigan ilk pedagogik yoki ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar hamda qarashlar yuzaga kela boshladi.

“Ma'rafatga ixlos va ahamiyat ajdodlarimiz jamiyatida ancha ilgari boshlangan edi; arablar islom dini bilanbirga yangi bilimlarni ham keltirdi. Bular ichida hadis ilmi keng quloqch yoydi. Shaklan arab xokimlarga qaram bo'lgan Turkiston xalqlari hunarmandchilikni rivojlantirish barobarida yangi ilmlarni ham o'zlashtirdilar va bu sohada tezda arablardan ko'ra balandroq pog'ona ko'tarildilar”.

Islom dini esa o'z rivojlanish bosqichlarini shakllantira boshlaydi. Masalan, mazhablar vujudga kelish davri o'z taraqqiyotini boshidan kechirdi.

O'tmish allomalarning pedagogik fikr va g'oyalarni bilish va yuqori baholashgina emas, balki ularni ijodiy qo'llay olish ko'nikma va malakalarini egallash zarurligi ta'kidlar ekanmiz, tadqiqotimiz jarayonida quyidagi savollar bilan talabalarga murojaat qildik:

1. O'rta asrlarda Sharqda iln-fan va madaniyatning jadal rivojlanishida asosiy omillar nimalardan iborat edi?
2. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ma'naviy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati. Uning qaysi pedagogik fikr va g'oyalari Sizningcha, alohida qimmatga ega?
4. Sharq qomusiy olimlarning pedagogik qarashlaridagi qaysi asosiy yo'nalishlar Ma'mun akademiyasidagi olimlar faoliyati yo'nalishlariga to'g'ri keladi?
5. Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini keyingi avlod olimlaridan kimlar rivojlantirdi?
6. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa allomalarning pedagogik merosi bilan tanishish Sizga nimalar berdi?

Kelajakdagi pedagogik faoliyatingizda undan qanday foydalanmoqchisiz?

Biroq bu savollarga javobni shunchaki bilishning o'zi kifoya qilmaydi, undan foydalana olish, pedagogik faoliyatda uni qo'llashning yo'llari va uslublarini aniqlash lozim.

Bu borada "Pedagogika tarixi" kursida tashkil etiladigan "O'rta asrlarda O'rta Osiyo olimlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari" mavzusidagi maxsus seminar muhim ahamiyat kasb etdi. Maxsus seminarining vazifalari:

1. Talabalarning Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi haqidagi bilimlarini kengaytirish va umumlashtirish.
2. Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalashdagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash va tasniflash.

3. Talabalarni bugungi kunda dolzarb bo'lgan ma'naviy sifatlarni tarbiyalash haqidagi pedagogik fikr va g'oyalarini ijodiy o'zlashtirish, kelgusi faoliyatida ulardan foydalanishga yo'naltirish.

Maxsus seminarining asosiy ish shakli dars, asosiy uslublari-talabalar ma'ruzasini tinglash va muhokama qilish, mustaqil ish davomida o'rgangan falsafiy, tarixiy, pedagogik bilimlarini umumlashtirishdan iborat edi.

Maxsus seminarining vazifalari, uslublari va kutilayotgan natijalar talabalarga ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etish imkoniyatini yaratdi. Talabalarga mustaqil holda ma'ruza uchun mavzu tanlashga imkon berildi. Ma'ruzaga, uning mazmuni yuzasidan chiqishlarga, ma'ruzalarni kichik hajmdagi referat tarzida rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirildi. Adabiyotlar ro'yxati tavsiya etildi.

Dastlabki mashg'ulotda talabalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bo'yicha ma'naviy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalariga oid ikkita ma'ruzani tinglash va muhokama qilish vazifasi qo'yildi. So'ng maxsus seminarda ko'riladigan masalalar mazmuni bilan tanishtirildi.

Birinchi mashg'ulotda o'rta asrlarda Ma'mun akademiyasi olimlarining ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishiga tarixiy omillarning ko'rsatgan ta'siri yoritiladi: Xorazmiy, ibn Sino, Beruniyning yoshlarni ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga doir fikrlarining asosiy yo'nalishlariga tavsiflab berildi.

Ikkinchi mashg'ulot talabalarning "Yaqin va O'rta Sharq allomalarining yoshlar ma'naviy sifatlarini tarbiyalash shakl va usullari to'g'risida" mavzusidagi ma'ruzalarining muhokamasiga bag'ishlandi.

Talabalar o'zaro taqriz qilishi uchun referatlar almashishadi, hammaga to'ldirish uchun so'robnoma tarqatiladi.

Maxsus kurs bo'yicha savollari va javoblari quyidagi natijalarni berdi:

**O'rta asrlar O'rta Osiyo olimlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlarini
o'rganishga doir bilimlari darajasi**

№	So'rovnoma savollari	Ishtirokchi: Jami 43 nafar talaba					
		Tajriba guruhi (N ₁ = 21)			Nazorat guruhi (N ₂ = 22)		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
1	Ijtimoiy-pedagogik g'oyalar rivoji nimalarga bog'liq edi	5	6	10	7	6	9
2	O'sha davrning yetuk qomusiy olimlarini yozib chiqing.	4	10	7	5	8	9
3	Nima uchun ularni mutafakkirlar deymiz?	11	2	8	7	9	6
4	O'rta asr olimlarining pedagogik qarashlaridagi asosiy yo'nalishlar nimalarga qaratilgan edi?	3	6	12	6	11	5

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va ma'naviy-madaniy qadriyatlar, milliy an'analar xalq ijodi mahsuli bo'lib, xalqimizning ma'naviy-madaniy tafakkurini yuksaltirishga hissa qo'shgan boyligidir.

An'analarning yashashi, amal qilishi muayyan ob'ektiv shart-sharoitlarga va sub'ektiv omillarga bog'liq. An'analar o'ziga xos qonuniyatlar bilan barhayotdir. Ular nisbiy mustaqillikka ega, ya'ni an'analarni vujudga keltirgan shart-sharoitlar, sabablar yo'qolib ketgan bo'lsa-da, an'ana o'zining kuchi bilan yashayveradi. Xalqning urf-odatlarini, bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar almashinishiga qaramay, uzoq zamonlardan buyon mavjuddir. Ulardan bir qismi yangi sharoitda yangicha mazmun kasb etib, o'zini namoyon qiladi. Xullas, an'analarning mavjudligi

tarixiy zaruratdir. An'analarda xalqning donishmandligi, uning hikmatlari, aql-idroki o'z ifodasini topgan.

Borliqdagi voqea-hodisalar turli-tuman bo'lganidek, an'analarning shakl va mazmuni ham turlichadir. An'analarning shakllari:

- Turli tavsifdagi madaniy-ma'rifiy yodgorliklar, muassasalar (tarixiy ansambllar, maqbaralar, sardoba, masjid, madrasa, xonaqoh va boshqalar);
- Badiiy estetik narsa va hodisalar (xalq san'ati, musiqa, yozma manbalar, milliy bayramlar, to'y, motam marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, kiyinish madaniyati bilan bog'liq turli bezaklar va boshqalar);
- Jismoniy chiqtiruvchi o'yinlar (chovgon, ko'pkari, shatranj, nard va boshqalar);
- Millat, xalq tafakkur tarzini belgilovchi mehnat qadriyatlari, hunarmandchilik san'ati (kulolchilik, misgarlik, me'morchilik, duradgorlik, o'ymakorlik, sartaroshlik, ganjkorlik, dehqonchilik, chorvachilik va boshqalar);
- Inson maishiy turmushni ifodalovchi an'analarning (taomlar, hayvonot olimi va boshqalar);
- Insoniyat ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan ilmiy manbalar (mantiq, falsafa, riyoziyot handasa, adabiyot, islom ilmi);
- Insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, muruvvat, ota-onaga muhabbat kabi ma'naviy-ruhiy an'analarning hamda adolat, tinchliksevarlik, tenglik, do'stlik, o'z-o'zini anglash, erkinlik kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi an'analardan iborat.

Odat – (urf-aodat) esa kishilar turmushga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Urf-odatlar udumlar, ras-rusumlar zanjiridan iborat. Ular madaniy boyliklarni avlodlarga hadya etuvchi muhim vosita hisoblanadi.

Demak, an'ana urf-odatdan kengroq tushuncha. Urf-odatlar ko'proq odamlarning turmushi va axloqida namoyon bo'lsa, an'analarning ijtimoiy ongning hamma shakllarida – axloq, huquq, siyosat, fan va san'atda, shuningdek, ishlab

chiqarishning ba'zi jihatlarida aks etadi. An'ana umumiy tushunchani ifodalaydi, urf-odat esa xususiy tushunchadir.

Marosimlar – an'analarning badiiylashgan ramziy va musiqa, raqs, qo'shiq, publitsistik va badiiy so'z vositasida anglashiladigan muayyan g'oyalar, axloqiy normalar shaklidagi ko'rinishidir. Marosim bir necha rasm-rusum va udumlar zanjiridan iborat. U an'ananing tantanali badiiylashgan qismi bo'lib, ommaviy harakatlar yig'indisidir.

Bayramlar - kishining yakka va jamoa bo'lib hayot kechirish sharoitlarining yig'indisi bo'lgan, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-adatlarning muayyan shakldagi tantanali ko'rinishidir. Bayram jamiyat, ijtimoiy guruh, oila hayotidagi biror muhim va quvonchli voqeaga bag'ishlangan kundir.

Madaniyat – jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va madaniy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuasi. An'analar, bayramlar va urf-adatlar turmush madaniyati tushunchasining tarkibida harakat qiladi. Turmush tarzi, jamiyat o'zgarishi bilan turmush madaniyati ham o'zgarib boradi.

Ilmiy adabiyotlarda xalq pedagogikasidagi milliy an'analarning tarbiya sohasidagi ahamiyati ta'kidlanib, ular tadqiqotchining o'z ob'ekti nuqtai nazaridan tadqiqot qilinadi va ularda an'analar tarqalish doirasiga, shakliga va mazmuniga ko'ra turlarga ajratiladi. An'analarning turlarga ajratilishi ilmiy qimmatga ega bo'lish bilan borgan, tarbiya jarayonining to'liq va mukammal bo'lishini ham ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan ilmiy adabiyotlarni o'rganar ekanmiz, xorijiy olimlar an'analarni tarqalish hududiga ko'ra, mazmuniga ko'ra, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratganliklarining guvohi bo'lmiz.

Islom dinining yoyilishi, markazlashgan arab xalifaligidagi ilm-fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrga kelib, ma'naviy ko'tarilishi, Uyg'onish davrini boshlab berdi.

Al-Ma'mun tomonidan tashkil etilgan "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi")-akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi va Sharqda ilm-fanning taraqqiy etishi, ma'naviy hayot yuksalishiga ta'sir etdi.

Butun Sharqda bo'lgan kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifatsohasida mashhur bo'lgan faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy meros bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

“Bayt ul-hikm” olimlari orasida Markaziy Osiyolik Ahmad Far'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abbos Ibn Said Javhariy, Ahmad Ibn Markaziy kabilar bo'lgan.

“Bayt ul-hikma” olimlari orasida hamyurtimiz Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy alohida mavqega ega bo'lgan. Ahmad farg'oniy uning taklif bilan 815 yilda yozib tugatgan astronomiyaga oid asarini muhokamaga qo'yadi, ilmiy jamoa unga yuqori baho beradi. Oqibat natijada, yosh olim Ahmad Farog'iniy bu nufuzli maskanning haqiqiy a'zosi etib qabul qilinadi. Xorazmiy vafotidan so'ng Ahmad Farg'oniy bu jamoaning yetakchi allomalaridan biriga aylanadi, uning dovrug'i butun O'rta va Yaqin Sharqqa yoyiladi.

Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi barcha zamonlarda jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan va u har bir davrda turlicha hal qilingan. Biz bugungi kunda asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimiz asosida farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu boradato'plangan boy tajriba murojaat qilishimiz shart.

Ota-bobolarimiz o'z farzandlari qanday e'tiqodga ega bo'lishini orzu qilganlarini anglash uchun xalqimiz uzoq tarix davomida yaratgan afsona, ertak, dostonlarga murojaat qilish kerak. Ularda tarannum etilgan vatanga muhabbat, erklarparvarlik, g'ururlilik, o'z burchini ado etish, o'z so'zini oqlash, mardlik, jasoratga qodirlik eng zarur fazilatlar bo'lgan. Ular “... o'z burchini ado etish, dushman ustidan g'alaba qilish yo'lida qahramonlarcha qurbon bo'lishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, o'z qabiladoshlarining or-nomusi uchun to oxirigacha kurashishga shay” turganlar. Buni Spitamen yoki Shiroqning miloddan avvalgi 519 yilda ko'rsatgan mashhur jasoratlaridan ham bilish mumkin.

II-Bob: O'rta Osiyoda yashab ijod qilib o'tgan mutafakkirlarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi.

2.1.Musiqa qo'shiqchilik madaniyatimiz tarixidan.

Abu Nasr Al-Forobiy (873-950) qomusiy olim. Dunyoga mashhur serqirra ijod sohibi. To'liq ism Abu Nasr Muhammad Forobiy bo'lib, Aris daryochasi sirdaryoga quyiladigan joydagi Farob qishlog'ida tug'ilgan.

Tarixchilarning yozishicha, bu joy shosh (Toshkent)ning shimolrog'icha bo'lgan. Forobiy turkiy qoshlolardan bo'lgan harbiy xizmatchi alohida tug'ildi.

Turkiy hamda so'g'd tillarida so'zlashgan, so'ngra Bog'dodda kelib arab tilini o'rgangan manbalarda keltirilishicha, Forobiy Bog'dodga kelgunga qadar shosh va Samarqandda bir oz yashagan, keyinroq Buxoroda o'qib ishlagan.

Forobiy nazariy fonlar bilan ko'proq qiziqqon bo'lib, u matematika, mantiq, nazariy tibbiyot, musiqa nazariyasi va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgangan.

Ma'lumotlarga qaraganda tabiatshunoslik, huquqshunoslik, bialogiya, poetika fanlaridan xabardor bo'lgan, arab, fors, grek, suriya, turkiy xalqlar tillarini bi'lgan. Astronomiya tili bilan yaqindan tanishgan. Grek olimlarining asoslarini sevib o'qigan.

Tez orada Forobiy bilimdon olim sifatida tanildi. Forobiy o'zining "At ta'lim, as soniy" nomli mashhur asaridan so'ng unga Aroshuden kengi "ikkinchi muallim" deb yoki sharq Aroshuni degan yuksak nom berildi.

Biz Forobiy haqida, uning ilmiy izlanishlari turli fanlar sohasida yaratgan asarlari haqida juda ko'plab misollarma'lumotlar keltirishimiz mumkin. Lekin ushbu risolada oldimizga Al Forobiyning musiqa sohasidagi qobiliyati ijodi, bu sohaga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risida ko'proq to'xtalishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Abu Nasr al Forobiy musiqashunoslikka o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Forobiyga qadar musiqa nazariyasini o'rganish bilan arab faylasufi va olimi Al kindiy shug'ullangan.

Al Kindiy qadimgi yunon mualliflarining asarlarini ona tiliga o'giran va ularga sharh yozgan.

Tarixchi G.Sartonning ta'kidlashicha Al Kindiy ilk musulmon musiqashunos bo'lgan Forobiy asarlari ungacha yaratilgan asarlardan misra ustun bo'lgan va u Sharq va G'arb musiqa nashriyotining rivojlanishida qo'yilgan yangi ulkan qadam bo'lgan.

Eng avvalo Forobiyning o'zi mohir musiqachi bo'lgan. U ijro etgan kuylarning tinglovchilarga qanchalik ta'sir etganligi haqida o'sha davrdagi afsona va rivoyatlar hozirgi kungacha yetib kelganki, siz aziz san'at muxlislari u haqda ko'p o'qigansiz va eshitgansiz. Forobiy shu bilan birga mohir bastakor, musiqa nazariyotchisi, shuningdek musiqa cholg'usi ijodkori hamdir. U yasagan soz turli manbalarda turlicha, ya'ni ud, qipchoq yoki qonun deb atalib kelgan.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlari orasida "Kitob ul musiqa al kabir", "Musiqa haqida katta kitob" keng tarqalgan. Bu kitobda Forobiy musiqaga keng ta'rif bergan. Forobiy yashagan davrda qadimgi grek mualliflarining musiqa haqidagi ba'zi g'oyalarigina ma'lum edi.

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy hozir o'zining "Musiqa haqida risola" sida yagona shaxs –Forobiy tilga oladi. Ud sozi torlarini 5 taga yetkazganini ta'kidlaydi.

Fransuz agostshunos olimi karra de Vo esa Forobiy haqida shunday deydi "Biz uning sharq musiqa nazariyasi bo'yicha eng eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz. U ayni vaqtda ham ijrochi-musiqachi, ham bastakor edi".

Forobiyning “Musika haqida katta kitob”ining hiyla katta hajmdagi 2 tondan iborat qismi 1930-35 yillarda Parijda fransuz tilida nashr qilindi. Uning kitobida quyidagi fikrlar alohida ta’kidlanadi: “Cholg’u musikasi ashulaga jo’r bo’lgan yoki ovozga taqlid qiladi” uni boyitadi hamda ashulani boshlang’ich qismini va uning ovozlariga cholg’u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarni vokal musikasini boyitadi. Shuningdek, kitobda Sharqning ud, rubob, dutor, xureson tanburi, Bog’dod tanburi va shu singari boshqa musika cholg’ulariga to’liq ta’rif berilgan. Bog’dod va Xuroson tanburlari dastasining uzun-qisqaligi, tarlari hamda pardalarining sonlariga ko’ra biroz farqlanganlar.

Forobiyning ko’rsatishicha, “Musika haqida katta kitob”i uchta alohida kitobda bayon etilgan.

1-kitobda musika bilimining usul-qoidalari va unga bog’liq bo’lgan turli jihozlariga to’xtalib o’tiladi.

2-kitobda zamonaviy musika cholg’ulari haqida suhbat boradi va avvalgi kitobda aytib ishongan usul-qoidalarining qaysi xilda ishlatilishi ko’rsatiladi.

3-kitobda esa kirilcha bo’lgan tovushlariga xillari haqida suhbat boradi. Mana shu uch kitobning har biri ikki forsdan iborat bo’lgani uchun, birinchi qism sakkiz shaxs, ikkinchi qism esa to’rt basdir.

Shuning uchun asarning o’zi 12 forsdan iboratdir. Forobiy mana bunday yazadi. “Nazariy bilimlardan xabardor bo’lgan yetuk san’atkor qaysi bilimda bo’lmasin, quyidagi uch narsaga ega bo’lishi kerak.

1. Har bir ilmning uslubi va qoidalarini to’la bilishi lozim.
2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo’lgan usul va qoidalarining natijalarini sharh va izoh etishga iste’dodli bo’lishi kerak.
3. Musika haqida noto’g’ri nojoyaga ega bo’lgan yozuvchilarning noto’g’ri nota ijodlarini tanqid eta bilish va xatolarini aylantira oling.

Ma'lumki har bir xalqning o'ziga xos madaniyati va tarixi bor. Bu tarixning mazmuni va ruhini ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy shart-sharoitlar belgilab bersa, ma'naviy madaniyatning o'zagini va qiyofasini uning falsafasi belgilab beradi.

Yoshlarni ma'naviy kamolini yanada yuksaltirish ishida va ularni ilm-fanga bo'lgan mehr-muhabbatini shakllantirish hamda tarbiyalashda o'tishda o'tib ijod namunalari bilan hissa qo'shib ketgan O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilg'or axloqiy-ta'limiy g'oyalari ham bugungi kunda o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki bu g'oyalardan saboq olish, o'rnak olish dolzarb ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz va tushunamiz.

O'rta Osiyo mutafakkirlari va olimlari nomini butun jahon xalqlari o'ganayaotganliklari, bilishi va ularga hurmat bilan tilga olishlari O'rta Osiyolik xalqlarga bo'lgan muhabbati, hurmati ekanligi deb hisoblaymiz. Dovrug'i olamga ketgan qadimiy Mavorounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilm fani, tarixiy taraqqiyoti zarvaraqlari ila bitilgan asarlari ham oz emas. Imom Buxoriy, Al Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur va boshqa yuzlab zotlarning jahon ilm axli yaxshi biladi.

Bu zamonlar silsilasida Imom at-Termiziyning aziz nomlari ham yorug' yulduzday charaqlab turibdi.

Darhaqiqat bugungi kunda at-Termiziy ma'naviy merosi nafaqat ahli did orasida balki dunyoviy ilm sohiblari keng miqyosidagi ahli jamoa orasida ham o'z qadrini topayotir.

Bu kishining shoh asarlarida "Kitob al-Jomiy as-Sahih" hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbalaraidan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozilu-fuzalolarga dastur bo'lib kelgan ahli adab, insofu-dunyonat, adolatu-insonparavarlikni targ'ib etuvchi g'oyalarni serdalg'a davrimizning

murakkab va ziddiyatli axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda bugungi kunda ham zamonaviy ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Jahonning rivojlanishida salmoqli hissa qo'shgan yaqin va o'rta Sharqning O'rta asr davrida yashab ijod etgan buyuk allomalari bir qator fanlar, jumladan xalq pedagogikasining ko'p tomonlarini chuqur va asosli ravishda ishlab chiqqanlar.

Ularning umumpedagogik g'oyalarini o'rganish shubhasiz katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu g'oyalar tarixning shunday davrida yaratilgan ediki, u vaqtlarda yangi davrning ko'p fanlari jumladan, pedagogika ham hali falsafa fanidan ajralib chiqmagan edi.

Ayrim mutafakkirlarning pedagogik falsafiy qarashlari adabiyotlari qisman tadqiqi qilingan xalos. Bundan tashqari, bu olimlarning respublikamiz ilmiy muassasalari kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalari hozirgacha yetarli darajada o'rganilmayotir. Buning bosh sabablaridan biri tilni, arab yozuvini bilmasligimiz, ya'ni arab, fors, eski o'zbek yozuvini bilish bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi, kamligi, oliy o'quv yurtlarida sharq mutafakkirlari yozgan ilmiy merosni talabalarga chuqur o'rgatilmasligidandir deb hisoblaymiz.

Bizning oliy o'quv yurtlarida xalq pedagogikasi, pedagogika, pedagogika tarixi fanlarini o'rganishda sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga doir quyidagi qomusiy asarlarini, jumladan: Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-adab al-Mufchad", "Adif durdonalari", "Al-jome, al-sahih", "Ishonchli to'plam" nomli shox kitoblari. Abu Iso Muhammad Ibn Iso at-Termiziyning "Jome at-Termiziy", "Suhan", "Kitob al-ilol", "Nuqsonlar kitobi", "Kitob ash-shamoil" payg'ambarlarning axloq va adablariga oid kitobi tilga olinadi.

Biz hamma fazilatlarga erishish yo'lida ya'ni yaxshi xulqi ham yomon ham eririshilishini e'tirog etmoqdamiz deb ta'kidlaydi Al-Forobiy. Yaxshi

xulqqa ega bo'lmagan kishi yaxshi yoki yomon xulqqa duch kelganda o'z irodasi bilan qarama-qarshi xulq tomon uchib ketish mumkin edi.

Farabiy tarbiyaning maqsadlari va vazifalari to'g'risida aytgan gaplarida Aristotelning barcha axloqiy fazilatlari tabiat inomi bo'lmay, balki mashq va odatlar mahsulidir degan g'oyasiga tayanadi va shu fikrlarga amal qilgan. Irodaning eng muhim ko'rinishi – erkinlik bo'lib, bunda inson hissiy va ma'naviy ehtiyojlar tanlab olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin, dastlab erkin iroda natijasi bo'lgan jihatlar vaqt o'tishi bilan majburiy xarakter belgisiga aylanadi. Ma'lumki har qanday xulq ham, umuman olganda hatto qiyin sharoitlar ham u xildan bu xilga o'tish o'zgarishga qodirdir. Binobarin kishi xarakterining biron fazilatini ham doimiy o'zgartirmaydi deb aytib bo'lmaydi.

Forobiyga ko'ra tarbiyaning asosiy maqsadi kishini xayrli ishlarni qilishdan iborat saxavatlikka ega bo'lishi orqali haqiqiy baxtga olib kelishdan iboratdir. Insonning axloqiy fazilatlar to'g'risidagi mulohazalarida Forobiy kishilarning birgalikdagi faoliyati hamda kishining butun holati davomida muayyan xulq-atvor normalariga rioya qilishi zarurligidan kelib chiqadi.

U xulq-atvor normalari yaxshi axloqiy fazilatlar asosida vujudga kelishiga ishonchi komil bo'lib, fikrini axloq sahnasidagi eng yaxshi narsalarni va u nimalar qilishga buyurishini bilib olishga yo'naltiradi. U mardlik, saxiylik, bosiqlik, xayrixoxlik singari axloqiy fazilatlar haqida gapirib, bular insonni tarbiyalashning asosi bo'lishi kerak, deb o'qtiradi. Mardlik uning fikricha, xavfli ishlarda evida qilinadigan damlik hisoblanadi. Saxiylik-pul saqlashi va sarflashda me'yorni o'zida bilish kerak. Qat'iyatli bo'lishi, riyokorlik va jihatdan yiroq bo'lishi, o'zini yomon qiliqlardan tuta bilishi, ilm ahliga hurmat bilan qarashi lozimdir.

Forobiyning fikriga foydali va go'zal xarakterlar qilishga qobiliyatini shakllantirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunday olim san'at ikki kategoriyaga bo'linadi – ulardan biri go'zallikka, ikkinchisi esa foydalilikka erishishga xizmat qiladi, degan xulosani chiqaradi.

Forobiy faqat go'zalikka erishishginaga maqsad qilib olgan san'atni falsafiy yoki tom ma'noda donishlandlik deb ataydi. Foydaga erishishni maqsad olgan san'atda esa tom ma'nodagi donishmandlik yo'q deb biladi.

Falsafiy san'at ikki turga bo'linadi. Birinchisi inson ta'sir etmaydigan mavjud predmetlarni bilishga yordam beruvchi nazariy falsafadir. Ikkinchisi esa inson ta'sir eta oladigan predmetlarni bilishni ta'minlaydi. Aynan ana shu san'at kishilarni go'zal xatti-harakat qilishga undaydi va shuning uchun ham amaliy yoki grajdan falsafasi deb ataladi.

Nazariy falsafa Forobiyning fikriga matematika, fizika, metofizikani o'z ichiga qamrab oladi. Inson esa o'z navbatida ikki turga bo'linadi. Birinchisi – yaxshi xatti-harakatlar va xulqlarni bilish, ular sababini talqin qilishiga binoan bog'liq bo'lib, u axloqiy san'at deb ataladi.

Ikkinchisi esa siyosiy falsafa deb ataladi va g'oyalarni bilishni taqozo qiladi. Bu g'oyalarni bilish o'z navbatida jamiyat va xalqni oqilona boshqarishga, go'zalikka erishishga va erishilgan go'zallikni uzoq muddat saqlab qolishga yordam beradi.

Ana shu fikr Forobiyning kishilar xatmida ilmiy bilim g'oyat katta ahamiyatga egaligini tan olganidan fan va ijtimoiy munosabatlar orasidagi sabab – oqibat aloqasini anglashga intilganimdan dalolat beradi.

Axloqiy tarbiyaning yana bir vazifasi komil insonning axloqiy naormalarni va hunar o'rganish uchun amaliy ko'nikmalarni egallab olishda deb biladi. Axloqiy fazilat va qadr-qimmat hamda ilmiy bilimlar hunardagi, san'atdagi va hokazolardagi qobiliyat singari kishi tomonidan atrof muhitning ta'siri ostida egallab olinadi.

Uning fikriga tarbiyaning asosiy maqsadi kishini ezgu ishlar qilishdan iborat yaxshi niyat orqali haqiqiy saodat tomon yetaklashdan iborat. Xuddi

Aflotun kabi Forobiy ham ezgu niyatli kishilar qalbi oxir-oqibat moddiy qobiqlardan xolos bo'lib, abadiy mustaqil yashab qoladi deb ishonadi.

Forobiy o'z asarlarida ma'naviy, axloqiy tarbiya masalalariga katta o'rin ajratar ekan, shuning uchun ham avvalo ilmiy bilimlarni egallab olish zarur deb o'qtiradi. Shu bilan birga bilimlar, uning ta'kidlashicha, yaxshi xulq-atvor bilan bezangan bo'lishi kerak, kishining bilimga intilishi esa, xuddi daraxtda, o'sayotgan barcha narsalar meva hosil qilish bilan tugallanishi singari, axloqiylik bilan yakunlanadi.

Ayni vaqtda Forobiy bu tarbiya sistemasini suiste'mol qilinganda salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida ham ogohlantirgan edi. Bunda hamma narsa deb hisoblangan edi u, o'qituvchi-tarbiyachining o'z axloqiy qiyofasiga bog'liq.

O'qituvchining xulq-atvori normasi shundaki deb ta'kidlaydi, u ortiqcha talabchanlik ko'rsatmasligi ham shuningdek haddan tashqari erkalatib yubormasligi ham lozim, chunki qattiqo'llik o'quvchini murabbiyga qarshi oyoqqa turg'izadi, erkalatib yuborish esa uning shaxsini hurmat qilmaslik, uning ta'lim va faniga nisbatan xafsalasizlik bilan qarashga olib keladi.

O'qituvchidan hamisha qunt va savot talab etiladi. Zero o'qituvchi tomchilab-tomchilab toshni teshishga qodir bo'lgan suvga monandir.

Forobiy ilmni qunt bilan egallashni istaganlarga mehr va hurmat bilan qaraydi. Ayni paytda ilmli kishilar "xudo suygan banda" lar yoki oliy tabaqaga tegishli bo'lishi shart emas deb bildi. Ilm o'rganishga kirishgan kishi, deb ta'kidlaydi. Forobiy kamtar, sog'lom bo'lishi adobli va axloqli bo'lishini ta'kidlaydi.

Ana shunday qimmatli fikrlarining ko'pi Forobiyga (880-950) tegishlidir. Forobiy Aflotun va Rastu falsafasini mukammal biladi. Shuning uchun ham asosan Aflotunning idealistik falsafasiga uning qarashlarida

belgilarini ham ko'rish mumkin. Masalan, Forobiy olamni abadiy deb o'ylaydi, uni yo'q qilib bo'lmaydi deb ishonaman. Uningcha turmushning cheki bo'lmaydi olamda hamma narsa rivojlanishda bo'ladi. Forobiyning ijtimoiy qarashlari ham Aflotunning donishmand-faylasuflar boshqaradigan ideal davlatlar haqidagi g'oyalarni eslatadi. Forobiy o'rta asr musulmonligi uchun yangilik bo'lgan barchaning tabiiy qobiliyati va iqtidori rivojlanishini ta'minlangan, ongli ravishda tashkil etilgan jamiyatdagina kishilar baxt va saodatga erishishi mumkin.

Bu Forobiyning tarbiya masalalariga g'oyat katta ahamiyat berganidan dalolatdir. O'rta asr yaqin va o'rta Sharq mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi h'oyat salmoqlidir. O'sha davr yaqin va o'rta Sharq qomusi olimlarining ko'plab asarlarida umumbashariy fanlar, shu jumladan ta'lim va tarbiyaga oid, pedagogikaning rivojlanishiga oid g'oyat qimmatli fikrlar bayon etiladi.

Bu ilmiy g'oyalar yillar o'tishi bilan hayot sinovidan o'tib, jahonda insonparvarligi bilan ajralib turadigan Sharq xalq pedagogikasining o'lmas asosi bo'lib qoldiki ularning umumpedagogik g'oyalarini o'rganish shubxasiz katta qiziqish uyg'otadi. Bu g'oyalar aks etgan ilmiy asarlar esa Sharqda ham G'arbda ham shu sifatida olimlarga va haqda katta xizmat qilmoqda.

Biz ayrimlarini tilga olib o'tadigan bu qimmatli ilmiy asarlarda o'rta asr mutafakkirlarini ilmiy izlanishlarining asosiysi – inson ongini urug'lashga intilish va falsafiy mushoxodalar o'z aksini topgan olimlar insonni aqliy, axloqiy, mehnat va jismoniy tarbiyalashning maqsad va vositalariga oid o'z oqilona qarashlarini bayon etganlar. Bu ishni ustozlar yoki xususiyatlar bajaradilar.

Forobiyning pedagogik qarashlarini xarakterlash uchun bizning uning-insonning hayotiy ehtiyojlari unda o'zining hissiyotini va muomalada

bo'lishga ehtiyojni hosil qiladi, inson faqat ijtimoiy guruhdagina kamolotga erishi mumkin, degan fikrlari jiddiy e'tiborga loyiq.

Inson va uning tarbiyasi muammosi Forobiy falsafiy sistemasining eng jiddiy va murakkab qismi bo'lib, uning "Saxovatli shahar aholisining qarashlari to'g'risidagi haqida", "Grajdanlik siyosati", "Davlat arboblari haqida" singari ijtimoiy masalalarga doir bergan yirik asarlarida ko'rib chiqiladi.

Forobiyning ilmiy-pedagogik g'oyalari keyingi asrlarda Osiyo va Yevropaning atoqli mutafakkirlari yodida davom ettiriladi va takomillashtirildi. Forobiy va uning davrdagi boshqa olimlarning dunyoqarashlaridagi insonparvarlik an'analari rivojlantirishga O'rta Osiyolik qomusiy beruniy (1073-1048 yillar) katta hissa qo'shdi.

U ilmiy bilimlarsiz inson o'z mohiyatida shubxali bo'lib qoladi, deb ko'rsatgan edi. Forobiy tug'ma g'oyalarni so'nggi darajasidagi baxt-saodatga tan olmaydi. Insonda fikrini va va tug'ma fazilat ilmiy fazilatga bo'ysunishi kerak. Insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilati tug'ma emas. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podsholik ularga faqat tabiiy ravishda muayyan bo'lgan tabiiy talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi.

Forobiy baxt-saodatga erishuv haqida "Kasb-hunar fazilat tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar aqllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir."

Ta'lim – deydi u so'zni davom ettirib, faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir. Axloqiy xislatlar to'g'risidagi gapini gapirgan ediki, bular insonni tarbiyalashning asosi bo'lmog'i lozim.

Mardlik, uning fikriga, xavf-xatarli ishlarda ko'rsatiladigan oqilona dadillik, bunday ishlardan o'zini tiyishda namoyon bo'ladi. Saxiylik – pulni ishlash va sarflashda marosimda ish ko'rishni talab qiladi. Haddan tashqari tejamkorlik va pulni yetarli darajada sarflamaslik ziqnalikka olib keladi va bu yaxshi axloqiy sifat emas.

“Do'stlik – bu qimmatli axloqiy fazilat bo'lib, u bir kishining boshqa kishi bilan jo'yali aloqasi jarayonida hosil bo'ladi. Shu tufayli u gaplashishdan yoki xatti-harakatidan yaxshi qoniqish hosil qiladi.

Inson butun mavjudotni o'rganish, kasb-hunar va ilmlarni o'zlashtirish orqali baxt-saodatga erisha oladi. Inson hayotining oliy maqsadi ham baxt saodatga erishuvidan iborat. Insonning baxtli bo'lishi uning irodasiga bog'liq.

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubxasiz o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.”

Forobiyning fikriga, axloqiy tarbiya vazifalardan biri kishida foydali va go'zal harakatlar qila olish qobiliyatini hosil etishdan iboratdir. Bundan u shunday xulosaga keladi: san'at ikki toifaga bo'linadi. Biri go'zallikka, ikkinchisi esa foydaga erishishga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiyaning yana bir vazifasi-kishining axloqiy normalarni va hunar o'rganish uchun amaliy ko'nikmalarini egallab olishdir. Axloqiy fazilat va qadr-qimmatlar ham ilmiy bilimlar, hunar va san'atdagi mahorat singari kishida atrof-muhitning ta'siri ostidashakllana boradi.

Uning axloqiy fazilatlar to'g'risidagi mulohazalarida kishilarning birgalikdagi faoliyati hamda insonning butun umri davomida muayyan xulq-atvor normalariga rioya qilish zarurligidan kelib chiqadi. U shunga imoni komil ediki, xulq-atvor normalari yaxshi axloqiy xislatlar asosida yuzaga keladi va fikrini axloq sohasidagi eng yaxshi narsalarni va u tavsiya etadigan xatti – harakatlarni bilib olishga yo'naltiradi. U mardlik, saxiylik, bosiqlik, do'stlik singari axloqiy xislatlar to'g'risidagi gapirilgan ediki, bular insonni tarbiyalashning asosi bo'lmog'i lozim.

Abu Nasr al-Forobiyning, “Donolik javoxiri”, “Fan va san’atning fazilatlari haqida”, “Bilim asoslari haqida”, “Baxt-saodatga erishish haqida”, “Savollar manbai haqida”, “ibratli ta’lim haqida”, “Saxovatli shahar aholisining qarashlari to’g’risida”.

Ma’naviy, axloqiy tarbiya masalalariga o’z asarlarida Forobiy (880-950) katta o’rin ajratgan bo’lib, buni u avvalo ilmiy bilimlarini eggalashdan iborat deb tasavvur etgan edi. Shu bilan birga, bilimlar uning o’qtirishiga yaxshi xulq-atvor bilan bezatilgan bo’lishi kerak. Kishining bilimlarga bo’lgan intilishi esa, go’yo daraxtda o’sadigan barcha narsalar meva terish bilan tugallangan singari axloqiylik bilan yakunlanadi.

Inson tabiatni tahlil etar ekan, Forobiy jumladan, uni turli tomonlardan, biologik, psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy, siyosiy jihatlardan qarab chiqadi.

Olimning fikriga ko’ra inson tabiatan shunday qobiliyatga egadirki, uning xatti-harakatlari, ruhiy ko’rinishi va butun xulq atvori faqat risoladagidek bo’lmay, balki buzilgan ham bo’lishi mumkin. Buning oqibatida kishi faqat yaxshi ko’p fanlarni, jumladan pedagogika ham, falsafa fani ham ajralib chiqmagan edi.

Ayrim mutafakkirlarning pedagogik qarashlari adabiyotlarda qisman tadqiq qilinmagan. Bundan tashqari, bu olimlarning jumxuriyatimizning ilmiy muassasalari fanlarida saqlanayotgan qo’lyozmalari hozirgacha yetarli darajada o’rganilmasdan turibdi. Buning bosh sababi tilni bilmasligimiz, arab, fors, eski o’zbek yozuvi bo’yicha mutaxassislarimizning kamligi, oliy o’quv yurtlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini talabalarga chuqur o’rgatilmasligidadir.

Bizningcha, oliy o’quv yurtlarida xalq pedagogikasi, pedagogika, pedagogika tarixi kurslarini o’rganishda Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga doir quyidagi asarlarini, jumladan: Imom Ismoil al-Buxoriyning, “Al-adab-al-Mufrad”, “Adab durdonalari”, “Al-Ja’me as-Saxix”, “Ishonchli to’plam” nomli shox kitobi.

Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning “Jo’la at-Termiziy”, “Susan”, “Kitob al-ilal”, “Nuqsonlar kitobi”, “Kitob ashshamoil at-notaviya”, “Payg’ambarlarning axloq va odoblariga oid kitob”.

2.2. **Abu Nasr Forobiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.**

Mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurish ishi keng avj olib ketgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning Vatanga bo'lgan mehr – muhabbatini oshirish, ma'naviy-siyosiy ongini o'stirish va estetik hissini takomillashtirish muhim masalalardandir.

Estetik axloqiy tarbiya borasida san'at, xususan musiqa san'ati o'rnining ta'sir kuchi bilan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u eng qadimiy ayni chog'da zamonaviy va xalqning sevimli san'ati hisoblanadi.

IX asr oxiri va X asr boshida yashab ijod etgan buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning "Sof birodarlar maktubi" nomli asarida musiqaning naqadar ta'sirchan ekanligi haqida rivoyatlar keltiriladi: "Kenlardan bir kun e'tiborli bir kishi o'z huzuriga musiqachilarni chaqiradi. Ularning mahoratiga qarab o'tirishga taklif etadi. Shu payt ular huzuriga juldur kiyingan bir kishi kirib keladi.

Uy soxibi uni eng to'rga o'tirishga taklif uyg'otadi. Bundan musiqachilar ranjiydilar. Shunda uy egasi kelgan kishining ulardan ustun ekanligini ko'rsatish uchun shunday deydi...". Undan biror kuy chalib berishini iltimos qiladi. Notanish kishi yonidan bir yog'och asbobini chiqarib, bir-biriga ulab, shunday bir kuyni chaladiki majlisda o'tirganlar nihoyatda shod va xursand bo'ladilar. Keyin u bir kuyni ijro etadi. Kuy shunchalik ta'sirchan va mungli bo'ladi, o'tirganlar qayg'uga tushadilar, qalblari alamga to'ladi.

So'ng u yana bir kuyni chaladiki, o'tirganlarning hammasi uxlab qoladi. Shundan keyin u xonadan chiqib ketadi. Balki ushbu rivoyatda mubolag'a va bo'rtirish ko'proqdir, lekin yaxshi musiqa tinglovchilarning his-tuyg'ulariga, eng nozik qalb terlariga ongi, tafakkur va ruhiga ta'sir etishi tabiatdir.

Chunki, u kishini o'ylashga, fikr yuritishga xayol surishga, ma'lum xulosalar chiqarishga majbur qiladi. Zotan, san'atning bunyodkorlik qudrati ham ana shundadir. Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino "Ash shifo" kitobida musiqaning, kuy va ohangining bola qalbiga estetik ta'siri haqida fikrlarni bayon qiladi. Olimning ta'kidlashiga, inson o'z tabiatiga ko'ra musiqaga moyil, musiqa tinglash, u bilan shug'ullanish qanchalik erta boshlansa, unda san'atga bo'lgan moyillik va ehtiyoj shunchalik tez va barvaqt rivojlanib boradi.

Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy roli haqida gapirar ekan, uni jismoniy tarbiya bilan birgalikda olib borishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiyning aytishlaricha san'at ham naqadar to'g'ri va haqqoniy bo'lmog'i lozim. Chunki san'atdagi to'g'rilik va haqqoniylik xalqqa chinakam foyda keltirishi mumkin.

Estetik tarbiya yoshlar tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shaxsning estetik ideallari va didni sobit qadamlik bilan shakllantiradi, voqealiklar, hodisalar va san'at asarlarini estetik idrok qilishga yordam beradi. Shuningdek, san'at sohasida mustaqil ijod qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqashunos olimlarning fikriga musiqa kishilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etishdan tashqari, nafas olish, qon aylanishi, yurak urishi, mushaklar harakati va katta miya biotaklarining o'zgarishi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zero mohir sozanda, respublikada xizmat ko'rsatgan artist Turg'un Alimatovning tanbur va soatda ijro etgan "Cho'li Iroq", "Munojot", "Tanovor" kabi kuylari kishini chuqur o'yga soladi, uzoq o'tmishni, hayot kechinmalarini eslashga undaydi. Sozanda Tohir Rajabovning qashqar rubobida ijro etgan sho'x va dilrabo kuylari esa, tinglovchiga zavq baxsh etadi, kayfiyatini ko'taradi.

Odatda o'z hayotining barcha sohalarida yuksak axloq prinsiplariga amal qiladigan kishilargina estetik madaniyatli hisoblanadilar, binobarin

estetik jihatdan tarbiyalangan kishi ayni bir paytda yuksak axloqiy fazilat egasi hamdir.

Yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashni ularning axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, aqliy va jismoniy tarbiyasidan ajralgan hamda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Axloqiy va estetik tarbiyaning birligi yosh avlodda axloq prinsiplarining, umuminsoniy tushunchalarining shakllanishi, estetik ehtiyojini o'stirib borish uchun muhim asos sifatida xizmat qiladi.

Xalq ta'limi xodimlari oldiga qo'yilayotgan vazifalar axloqiy va estetik tarbiya ishini tobora takomillashtirish, uning yangi forma va metodlarini izlab topish, uni davr talabiga mos bo'lgan yangi bosqich darajasiga ko'tarishni taqozo etadi. O'quvchi yoshlarning har yili o'tkaziladigan "San'at bayrami" ko'rik tanlovlar respublikamizda yosh talantlarining chinakam ko'rigiga aylanib qoldi.

Abu Nasr Forobiyning ta'lim tarbiya yo'llari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi-deb ta'kidladi. Insonning kamolga yetishda ham aqliy ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqali muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta'lim va tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir. Manbalarda ko'rsatishicha Abu Nasr Forobiy zabardast bastakor, hamda ud, tanbur, nay, chang va qonun asboblarning mohir ijrochisi bo'lgan. Forobiy o'tkir didli va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli o'rta Osiyo va yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqiy qarashlarini shakllantirishda, ayniqsa O'rta Osiyo va Eron xalqlarining musiqa merosiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Forobiy olamshumul ahamiyatga molik asarlar yaratib, musiqashunoslik tarixida so'nmas iz qoldirgan. U ko'plab musiqaga oid asarlar yaratgan. Manbalarda uning katta musiqa kitobi "Musiqaga kirish"

ritmlar klassifikatsiyasi kitobi ko'p tillarga tarjima qilinib, qo'lyozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Musiqa ilmi yoritishi jihatdan o'z davrida tengsiz bo'lgan “katta musiqa kitobi” jahon fanining shox asarlaridandir.

Forobiy bu asarida oldinlari boshqa fanlarning tarkibiy qismi bo'lgan musiqasini mustaqil ilm darajasiga ko'targan. U asar muqaddimasida “katta musiqa kitobining” 2 qismga bo'lgan. I-qismida ilmning nazariy va amaliy asarlarini yoritilgan bo'lsa, II-qismida o'tmish, olimlarining musiqa ilmdan xatolariga izohlar berishga qataratilgan.

“Ilm ta'rif” dastlabki tushuncha tovushning musiqiy va fizika xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Tovush biron bir qattiq yoki yumshoq yoki qattiq tananing tebranishidan hosil bo'lgan fizikaviy hodisa deb ta'rif beradi.

Tovush kelib chiqadigan tushuncha nag'madir. Hag'ma tovush, tan, parda ma'nosini bildiradi. Bud-interval ilmu ta'rifning markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Prima – barcha intervallarning asosi bo'lganidek, 1 raqamini barcha sonlarning negizi deb olinadi. Shunga ko'ra ochiq tor 1 raqamiga tenglanadi. Ochiq torni qoq o'rtasidan bo'linishi oktava intervalini beradi.

1/1 – prima

1/2 – qo'sh (oktava)

2/3 – xolis (kvinta)

3/4 – arba (kvarta)

2/3 – katta (sekunda)

Forobiy bularni har doim torni bo'lish yo'llari bilan emas, balki katta intervaldan o'nliklardan ayrilib yoki ularni bir-biri bilan qo'shib yangi budlarni hosil qiladi. Intervalni barpo etish nazariy jihatdan cheksiz bo'lishi mumkin. Ammo musiqaga aloqador intervallarning eng kattasi fazla deyiladi.

Hozirgacha intervallarning miqdori nisbati bilan emas, balki sent deb nomlanuvchi estetik birlik bilan o'rganadi. Ja'sh oktava oralig'idagi tovush qator Forobiy cho'zishlarni eng kichik cho'zish deb nazarni belgilagan. Naqr – hozirgi sakkiztalik cho'ziqligi teng keladi.

U yaratgan musiqa nazariyasiga oid risolalari g'arb olimlari uchun muhim qo'llanma, tengsiz noyob manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy qonun musiqa asbobiga bir qo'shimcha tor ilova qilib takomillashtirilgan va uning ovoz imkoniyatlarini oshirgan. Shuningdek boshqa cholg'u asboblari (ud, tanbur, rubob) haqida ham qimmatli ma'lumotlar bergan. Ma'lumki qadimgi ud, avvalo ikki torni bo'lgan va uning tarlari "zir" va "boli" deb nomlangan.

"Zir"-pastdagi ingichka tor. Keyinchalik uning turlari ko'paygan udlar – quyidagicha nomlangan ("boli", "masna", "mas-mas", "zir", "xod") deb nomlangan.

Shuni aytish mumkinki, Abu nasr Forobiy yaratgan musiqa nazariyasiga oid risolalari keyingi avlod Sharq va G'arb olimlari uchun muhim qo'llanma, tipsiz noyob manba bo'lib xizmat qiladi.

Forobiy nazariy fanlar bilan ko'proq qiziqqan bo'lib, u matematika, mantiq, nazariy tibbiyot, musiqa nazariyasi va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgangan.

Ma'lumotlarga qaraganda, tabiatshunoslik, huquqshunoslik, filologiya, poetika fanlaridan xabardor bo'lgan, arab, fors, grek, suriya, turkiy xalqlar tillarini bilgan. Astronomiya fani bilan yaqindan tanishgan. Grek olimlarining asarlarini ayniqsa sevib o'qigan.

Tez orada Forobiy bilimdon olim sifatida tanildi. Forobiy o'zining "At ta'lim as soniy" nomli mashhur asaridan so'ng, unga Arastudan keyingi "ikkinchi muallim" deb yoki Sharq Arastusi degan yuksak nom berildi.

Biz Forobiy haqida, uning ilmiy izlanishlari turli fanlar sohasida yaratgan asarlari haqida juda ko'plab misollar, ma'lumotlar keltirishimiz

mumkin. Lekin ushbu risolada oldimizga Al Forobiyning musiqa sohasidagi qobiliyati, ijod, bu sohaga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risida ko'proq to'xtalishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Abu Nasr al Forobiy musiqashunoslikka o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Forobiyga qadar musiqa nazariyasini o'rganish bilan arab faylasufi olimi Al Kindiy (Abu Yusuf Yoqib ibn Ishoq) shug'ullangan. Al Kindiy qadimgi Yunon mualliflarining asarlarini ona tiliga o'tirgan va ularga sharh yozgan.

Eng avvalo Forobiyning o'zi mohir musiqachi bo'lgan. U ijro etgan kuylarning tinglovchilarga qanchalik ta'sir etganligi haqida o'sha davrdagi afsona va rivoyatlar hozirgi kungacha yetib kelganki, siz aziz san'at muxlislari u haqda ko'p o'qigansiz va eshitgansiz. Forobiy shu bilan birga mohir bastakor, musiqa nazariyotchisi, shuningdek musiqa cholg'usi ijodkori hamdir. U yasagan soz turli manbalarda turlicha, ya'ni ud, g'ijjak yoki qonun deb atalib kelgan. Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlar orasida "Kitob ul-musiqi al kabir"- "Musiqa haqida katta kitob"i keng tarqalgan. Bu kitobda Forobiy musiqaga keng ta'rif bergan. Forobiy yashagan davrda qadimgi grek mualliflarining musiqa haqidagi ba'zi g'oyalarigina ma'lum edi.

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy ham o'zining "Musiqa haqida risolasi"da yagona shaxs – Forobiyni tilga oladi. Ud sozi torlarini 5 taga yetkazganini ta'kidlaydi. Fransuz arabshunos olimi Karra de Vo esa Forobiy haqida shunday deydi: "Biz uning Sharq musiqa nazariyasi bo'yicha eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz. U ayni vaqtda ham ijrochi-musiqachi, ham bastakor edi".

Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob"ning xiyla katta hajmdagi 2 tomdan iborat qismi 1930-35 yillarda Parijda fransuz tilida nashr qilindi. Uning kitobida quyidagi fikrlar alohida ta'kidlanadi: "Cholg'u musiqasi ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulani

boshlang'ich qismini va uning oralaridagi cholg'u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarni bo'rtirib, vokal musiqasini boyitadi. Shuningdek, kitobda Sharqning ud, rubob, dutor, Xuroson tanburi, Bag'dod tanburi va shu singari boshqa musiqa cholg'ulariga to'liq ta'rif berilgan. Bag'dod va Xuroson tanburlari dastasining uzun-qisqaligi, torlari hamda pardalarining sonlariga ko'ra biroz farqlanganlar.

Forobiyning ko'rsatishicha, "Musiqa haqida katta kitob"i uchta alohida kitobda bayon etilgan.

I kitobda musiqa bilimini usul-qoidalar va unga bog'liq bo'lgan turli jihatlariga to'xtalib o'tiladi.

II kitobda zamonaviy musiqa cholg'ulari haqida suhbat boradi va avvalgi kitobda aytib o'tilgan usul-qoidalarining qaysi xilda ishlatilishi ko'rsatiladi.

III kitobda esa turlicha bo'lgan tovushlarning xillari haqida suhbat boradi. Mana shu kitobning har biri ikki baxsdan iborat bo'lgani uchun, birinchi qism sakkiz baxs, ikkinchi qism esa to'rt baxsdir. Shuning uchun asarning o'zi 12 baxsdan iboratdir. Forobiy mana bunday yozadi: "Nazariy bilimlardan xabardor bo'lgan yetuk san'atkor qaysi bilimda bo'lmasin, quyidagi uch narsaga ega bo'lishi kerak.

1. Har bir ilmning uslubi va qoidalarini to'la bilishi lozim.
2. Shu bilimning turli holatlarda hosil bo'lgan usul va qoidalarining natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.
3. Musiqa haqida noto'g'ri nazariyaga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin va xatolarni oydinlashtira olsun".

Al Forobiy deyarli barcha sohalarda 160 dan ortiq asar yozgan. Yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolemey, Porfiriy va boshqalar

asarlariga sharhlar yozgan. Forobiy musiqaga umumiy baho berib, uni inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb hisoblanadi. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga egadir. Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o'zining "Forobiy sharq musiqasi asoslari haqida" nomli kitobida Forobiyning musiqaga oid fikrlariga alohida to'xtaladi. O.Matyoqubov Forobiyning "Musika haqida katta kitobi"dagi kuylarga, taronalarga, ovozlariga, musiqa asarlari haqidagi fikrlariga oddiy, sodda va tushunarli uslubda izoh berib quyidagicha ta'riflaydi: "Musika asarlarning vujudga kelishiga ikkita omil sababchi bo'ladi. Birinchidan kishi ongida bir yoki necha musiqaviy tushuncha, yo'nalishlarning tug'ilishi va takomillashuvi bo'lsa, ikkinchisi – musiqaning usul va ovozini vujudga keltiruvchi a'zolari boshqara bilish. Nafas a'zolari urib chalishlarni tashkil etib beradi, ko'krak qafasi va og'izdan chiqadigan havo esa kuy tashkil bo'lishini ta'minlaydi. Shu yo'l bilan musiqa cholg'usi va ovoz kuy ijro etilishi vositasi bo'lib qoladi".

Asardagi musiqa haqidagi tushunchani davom ettirib O.Matyoqubov quyidagilarni tushuntiradi: "Musika-bu ovozlar dunyosi va ovozlar munosabatidir". Forobiy o'z asarida ovoz haqida nafaqat qadimiy, balki hozirgi zamonga xos tasavvurlarni ham o'rta tashlagan edi.

Demak, ovoz jismoniy tananing boshqa bir narsaga ta'siriga paydo bo'ladigan tebranishdan yuzaga kelishi va uning to'rt muhim xususiyati: kuchlilik, davomiylik, tiniqlik va balandlikdan iborat ekanligi ma'lum bo'lar edi. Ulardan birinchi ikkitasi yetakchi va tashkiliy ahamiyatga egadir.

Ovozning chiroyliligi esa uning suniy va tabiiy chiqishi bilan bog'liqdir. Tug'ma berilgan ovoz orqali hosil qilingan ovoz tabiiydir. Cholg'u yordamdagisi esa sun'iydir. Qo'shiq qilib kuylashda inson ovozi muhim estetik asos hisoblanadi. Biz bayon etilgan fikrlar Sharqda ikkinchi

muallim bo'lish al-Forobiyning musiqashunoslik sohasidagi fikrlari xolos, hali bu sohada qilinadigan ishlar ko'p, u ulkan izlanishlarni toqozo etadi.

Abul Hasan Rudakiy fors-tojik adabiyotining otasi, faqat buyuk shoir emas, balki mashhur, usta sozanda va xonanda bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Rudakiy haqida manballarda quyidagi voqealar bayon qilinadi.

Ba'zi tadqiqotchilar Rudakiyning nomi, u tug'ilib o'sgan Buxoro yaqinidagi Rudek qishlog'i (Anhor yoki daryocha) nomidan olingan deyshisa, ba'zi bir olim va tarixchilar u o'zi muntazam chaladigan "Rud" nomli musiqa cholg'usining nomini taxallus qilib olgan deyishadi. Bizningcha, ikkala fikr ham haqiqatga yaqin.

Abdulqodir Nayiy-Isfaxon atrofidagi qishloqlardan biri-Noinda tug'ilib o'sgan. O'z davrining mohir musiqa ustasi va bilimdoni edi. (Bu XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning boshlariga to'g'ri keladi.). "Jaloirilar" hukumdorlardan bo'lmish Sulton Uvays saroyida xizmat qilgan. (Sulton Uvays 1356-1374 yillarda hukumdor bo'lgan).

U o'z san'ati bilan hukmdor va saroydagilarning barchasini hurmat e'tiborini qozongan. Shu bois shoh uni xush ko'rib o'ziga yaqin tutgandi.

Sulton Uvays vafotidan so'ng hukmdorlik Temur va uning vorislari qo'lga o'tadi. Abdulqodir ham to'g'ridan-to'g'ri Temuriylar xizmatiga o'tadi. Uning tashabbusi bilan Temuriylar saroyiga o'sha davrning mashhur musiqachilari Sayfiddin, Abdulmo'min va Qutbiddin Nayiylar jalb qilinadi va ular Abdulqodir Nayiy bilan birgalikda saroyda katta hurmatga sazovor bo'ladilar. Lekin Abdulqodir Nayiy o'z hamkasblari bilan tuhmat va bo'xtonga uchraydilar. Tez orada mohir sozanda Qutbiddin Nayiy osib o'ldiriladi. Rivoyatlarga qaraganda o'limi oldidan dor atrofida turgan bir bola qo'lidagi parcha qog'ozni olgan va uni surnay shaklida o'rab, musiqachi va

qo'shiqchilar orasida mashhur bo'lgan "Dor osti taronasi" (Peshrovi dor)ni mohirona ijro etib barchani hayratda qoldirgan edi.

Qutbiddin bilan birga Abdulqodir ham qatl etishga hukm qilingan edi. Uni ostiga olib kelganlarida Abdulqodir shoh huzuriga olib borishlarini so'raydi. Uning iltimosi qondiriladi. Hukmdor huzurida Abdulqodir quron oyatlarini hofizi Qur'onlardek tilovat qiladi. Uning shirali va dardli ovozi hukmdorga yoqib qolib uni avf etadi, ammo shahardan tashqari yuborishlarini buyuradi.

Abdulqodir oz muddat sarson-sargardonlikda hayot kechiradi, kunlardan bir kun o'sha hukmdor Iroq qo'shinlariga qarshi yurishga otlanadi. Bundan xabardor Abdulqodir g'aroyib bir ish qiladi. U bir nechta tuyalarning bo'yniga qo'ng'iroqchalar ilib qo'yadi. Tuyalar yurganda qo'ng'iroqchalardan shunday sas taraladiki, unga quloq solgan kishi go'yo mashhur Iroq maqomi uslubidagi Amali Tarona kuyini tinglaganday bo'lgan ekan. O'zi bu kuyga moslab g'azal bitib uni hukmdorning yaqin kishilardan, musiqa ilmi yaxshi tushunadigan Lari degan kishiga berib yuboradi.

Yo'l davomida hukmdor tuyalarga osilgan qo'ng'iroqchalardan taralayotgan ovoz kuy ekanligini tezda anglaydi. Chunki uning o'zi ham kuy va qo'shiqni yaxshi tushunardi. Shunda u o'z yoniga Larini chaqiradi va undan qo'ng'iroqchalardan taralayotgan kuy haqida so'raydi.

Shunda Lari hukmdorga, bir qoshiq qonumdan kechsangiz sizga bir sirni aytaman deydi. Hukmdor rozilik alomatini bildiradi. Lari hukmdorga Abdulqodirni eslatadi va qo'ng'iroqchalar orqali yangaragan kuy-la Abdulqodir o'zi haqida sizga bildirmoqchi bo'lganligini aytadi va Abdulqodir shu kuyga bastalab yozgan g'azalini o'qib beradi. G'azalda: "Ey shoh, o'z shahringa qaytayotganingda meni ham unutma, meni ham ola ket shoh", degan ma'no bor.

Bu voqeadan kuy va g'azaldan ta'sirlangan hukmdor, Abdulqodirning sadoqatiga qo'il qolib, uni yana saroyga chorlashlarini buyuradi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Abdulqodir umrning oxirida Bog'dodga ko'chib kelgan va yerda musiqa maktabi ochgan. U yerda Abdulqodir musiqa ilmiga yana ulush qo'shadi. U yerda Abdulqodir zarb-ul fath, chehar zarb, zarb miattayn uslublarini yaratadi.

Abdulqodir yuz yoshga kirib Bog'dodda olamdan o'tadi.

Xo'ja Abdulloh Loriy-XV asrda yashab ijod etgan bo'lib Abdulqodir Nayiyning yetuk shogirdi edi. U arab tilini mukammal bilgan va u tilda ko'plab g'azallarga bitgan, zamonasining bilimdoni bo'lgan.

Xo'ja Abdulloh Loriy qomusiy olim bo'lib, ko'pgina fanlardan ayniqsa astronomiya va tabobatdan yaxshi xabardor bo'lgan.

Musiqa ilmida faqat mohir sozanda bo'lib qolmay, balki katta nazariyotchi ham edi. U musiqa va qo'shiq ijrochisi, uning ta'sir kuchi, o'rni haqida qator risolalar bitgan. Afsuski bu risolalar muayyan sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmagan. Uning qobiliyati Temuriylar sulolasi hukmdorlarining nazariga tushgan va Abdulqodir Nayiy xizmat qilgan saroyda xizmatda bo'lgan. Aytishlaricha uning ustози Abdulqodir Nayiy hukmdor tomonidan eng og'ir jazoga hukm qilinib, undan qutulib qolishida Abdulloh ham katta hissa qo'shgan.

Shayx Shamsi Rabboniy – XIV asrda Buxoro atrofidagi qishloqlardan birida yashab o'tgan shayx, ayni chog'da o'z davrining mohir sozandasi. Shayx Shamsi Rabboniy islom duyosining mashhur kishilaridan bir bo'lmish Shayx Bahovuddin Naqshbandiy bilan qo'shni bo'lgan ekan.

Shayx Shamsi Rabboniy asosan o'sha vaqtlarda mashhur bo'lgan musiqa cholg'ularidan biri – rubobda yoqimli kuylar ijro etgan. Shayx Shamsi Rabboniy yoqimli kuylari qo'shnisi Shayx Bahovuddin Naqshbandiyni ham e'tiborini tortgan.

Bahovuddin Naqshbandiy Shayx Shamsi Rabboniy ayniqsa har tongda ijro etadigan kuylarini tinglashga ishtiyoqmand edi.

Aytishlaricha ketma-ket bir necha kun Shayx Shamsi Rabboniyning uyidan kuy ovozlari eshitilmay qoladi, shunda Naqshbandiy o'z shogirdini xabar olishga yuboradi va Shayx Shamsi Rabboniyning bemorligi xabarini eshitadi. Bahovuddin bemordan darhol xabar olgani borganda bemor o'lim to'shagida edi. Shunda Bahovuddin bemorga shunday deydi:- “Ey Shamsi vaqti qazoyi yetib qabrga kirganingda seni oldinga so'roq uchun kelgan Munkar va Nakir farishtalarga u dunyoda men Shayx Bahovuddin bilan qo'shni yashaganman deb aytgin” deydi.

Sozanda Shayx Shamsi Rabboniy vafot etadi va uning tobutini Bahovuddin to qabristohgacha ko'tarishib boradi hamda uning janozasini o'zi o'qiydi. Marhumni kuzatib borganlar uylariga qaytadilar va Bahovuddin orqaga qaytib qabr tepasiga keladi hamda qabrdagi savol-javobga quloq tutadi. Qabrga kirib kelgan Munkar va Nakir farishtalardan cho'chib, esing kiragan Shayx Shamsi Rabboniy Bahovuddin aytgan gaplarini ularga ayta olmaydi. Shunda Bahovuddin qabrga qarab, - ey qariya farishtalarga men Bahovuddin bilan qo'shni bo'lib yashaganman deb ayt, - deb hayqiradi.

Shu payt Allohdan nido kelib- “farishtalar bu qariyani bezovta qilmanglar, chunki u tirikligida Bahovuddinga qo'shni bo'lgan”, degan ovoz eshitiladi va shundan so'ng farishtalar qaytib ketadilar.

Demak, Shayx Rabboniydagi san'at kuchi, ta'siri shayx Bahovuddindek buyuk insonni e'tiboriga tushubdiki, bu voqea hatto shayx Rabboniyni qabr azoblaridan ham qutqardi.

Darvesh Ahmad-qonuniy – Samarqand shahrida tug'ilgan, 15 asrda yashab o'tgan mohir sozandalardan. Asosan qonun musiqa cholg'usini chalgan. Darvesh Ahmad ko'p vaqtini o'sha davrda O'rta Osiyoda mashhur

din peshvosi Hoja Ubaydulla Axror Eshonning xonaqosida o'tkazgan. Hoja Axror darvesh Ahmadning qonunda chalgan kuylarini sevib tinglardi.

Bu o'rinda shuni ham aytish joizki, mashhur eshon Hoja Axror musiqa va qo'shiq tinglashga ishtiyoqi zo'r bo'lib, uning majlis va yig'inlarida Samarqandning eng yetuk xofizlari muntazam qatnashgan va ular Jaloliddin Rumiy, Qosim ibn Anvar devonlaridagi g'azallarni kuyga solib aytishgan.

Hoja Axror ayniqsa qo'shiqchilar orasida Hofizi Kichik (kichik hofiz)ni yuqori baholashdan hamda ko'pincha uni qo'shiq aytirib o'zi esa ko'zda yoshi bilan eshitgan. Aytishlaricha, Hoja Axror bir kuni kechqurun o'z huzurida mashhur naychi Sulton Ahmad devonani taklif qilib, uning nihoyatda mohirlik bilan chalgan kuylarini eshitib, ketayotganda unga bir qancha oltin tanga hadya etgan.

Sulton Ahmad devona – XV asr. Usta naychi, Hoja Axror eshon davrida Samarqandda yashagan mohir sozanda bo'lib, odamlarni ta'rificha u soz cholganda hatto jonsizlar jonlanib ketgandek, bo'lar ekan.

Uning boshqa sozandalardan farqi bo'lib, u ham bo'lsa, har 3-4 oyda bir marta qattiq telba bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng yana, kelardi va yana nayini olib nihoyatda kuylar chalib, odamlarni xonandalariga borib xizmat qilib yurgan Hoja Axror eshon Sulton Ahmaddagi qaytarilmas san'atni ko'ra bilgan, qoyil qolib tuhfalar berib turgan. Ahmad devona ham Hoja Axrorga anchagina o'rganib qolgan.

Shuning uchun ham 1490 yilda Hoja Axror vafot etgandan so'ng, Sulton Ahmad devona butunlay devona bo'lib qolgan va shu kuni dunyodan o'tgan.

Shoh Qulay-g'ijjakiy XV asrda Hirotida tug'ilgan shu bois "Hirotiy" degan taxallus olgan. Musiqa ilmida amaliyotda ham, nazariyotda edi. U yoshligidanoq musiqaga, ayniqsa g'ijjak cholg'usiga jondili bilan qiziqqan oqibatida o'z ishining ustasi bo'lib yetishgan. Bir necha o'nlab yoqimli

tarona bastalagan. Muhammas uslubida yaratilgan. Peshravi (Husayniy) barchaning qalbidan o'rin olgandi. Hatto Abdurahmon Jomiy bu ijodkorning san'atiga yuqori baho berib, unga bag'ishlab she'r ham yozganligi ma'lum. Temuriylar sulolasining so'nggi hukmdori Sulton Husayn Mirzo (1468-1506 yil) davrida yashagan bu san'atkor haqida Bobur o'z "Xotiralarida" quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan. "Shoh qo'li g'ijjakda mashq qilish bilan juda ko'p shug'ullandi va cheksiz muvoffaqiyatga erishdi. Ko'plab kuylar va boshqa musiqa asarlarini yaratdi."

Xo'ja Yusuf Andijoniy Andijonda XV asrda yashagan va ijod etgan. U serqirra qobiliyat egasi edi. Hatto Alisher Navoiy Xo'ja Yusufning nomini o'zining "Majolis un Nafois" asarida katta hurmat tilga olgan.

Xo'ja Yusuf musiqa sohasida shu darajada mashhur bo'lib ketgan ediki, hatto ustod Darvesh Shodiy o'zi yaratgan kuylardan birining nomini Yusuf Andijoniy deb atagan. Aytishlaricha Sulton Husayn ham musiqa ilmini Xo'ja Yusufdan o'rgangan. Yusuf Andijoniy 360 dan ortiq kuylar yaratib, o'z davrining eng mohir va nashhur san'atkori bo'lib yetishgan. Musiqa asarlari xalq orasida juda keng tarqalgan.

Ustod Shodiy –O'rta Osiyoda Xv asrda yashab ijod etgan mashhur bilimdon olim. O'z zamondoshlari orasida katta hurmat va ehtirom qozongan, ayniqsa musiqachilar orasida eng izzatlisi sanalgan. Ustod Shodiydan ko'plab musiqa asarlari va kuylar, boz ustida yana bir nechta nihoyatda iqtidorli shogirdlar ham qolgan. Ustod Shodiy iroq maqomi yo'lida ijro etiladigan 12 naqsh (naqsh-ashula) kuy yaratgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish lozimki Abu Nasr Forobiy o'z zamonasining yirik olimlaridan biri deb hisoblangan. Forobiy o'z davrining qator ilmlarini chuqur o'rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirgan. U o'z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo'lib nom qozongan. Forobiy o'z davrida musiqa masalalariga bag'ishlab katta asar yozib, musiqa nazariyasining tavsilotini berdi va Sharqda keng tarqalgan musiqa asboblari tarixini qoldirdi. U o'z davrining qomusiy olimi bo'lib, riyoziyot, tibbiyot, arab gramatikasi, alximiya, falakiyot, mantiqqa oid asarlar yaratdi. Forobiy Sharqda qadimgi yunon falsafasi qadimgi dunyoning qomusiy olimi Arestotelning asarlarini o'rganish ularga sharhlar yozish g'oyalarini targ'ib etish va yana rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi.

Forobiy Arestoteldan keyin "Ikkinchi muallim" unvoniga sazovor bo'ldi. Buyuk olimga bunday baho berishni bejiz emas albatta, u fanning hamma sohalarini o'rganishga alohida e'tibor berdi. Tarixshunos olimlarning taxminicha, Forobiy dunyo tillaridan 70 tasini bilgan. Til inson kamolotini qaliy yetukligining asosiy bo'lganligi sababli, u fanlarni tartiblashda tilni eng birinchi fanlar qatorida qo'ydi. U har bir inson aqliga murojaat qilib, ayniqsa ota-ona va murabbiylarga qarata shunday degan edi: qanday qilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, qanday qilib o'z fikrini ifodalash, bayon qilish, so'rash va javob berish masalalsiga kelganimizda fanlar ichidagi eng birinchi fan – til haqidagi fandir, ikkinchi fan gramatika, uchinchi fan mantiq, to'rtinchi fan falsafadir, deb tasdiqlayman. Forobiyning til va uning o'rganishdagi g'oyalarni amalga oshirish mustaqil O'zbekistonni butun dunyo bilan hamjihat bo'lgan davrida ayniqsa zarurdir. Forobiy ijodiyoti jarayonida juda ko'p asarlar yaratdi. Uning ijodini o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan tadqiqotchilar uning 130 ta asar yozganligini ta'kidlaydilar.

Forobiy zamonasining peshqadam bilimdoni sifatida tinimsiz ilm o'rgangan, ijod qilgan ayni paytda muallimlik qilgan. Masalan, Abu Sirojiddin Asronomiya va matematikani o'rganib, unga mantiqdan dars bergan Forobiy, oliy madrasalarda talabalarni o'qitib, kamtarona hayot kechirgan.

Forobiy o'qitishning mazmuni va qonun-qoidalarini o'zining amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. U insonning baxt-saodatga erishishi uchun zarur bilimlarni o'rganadigan fanlarni etika va siyosiy guruhlariga ajratgan. Etika axloqshunoslikdan iboratligini, siyosiy fanlar esa davlatshunoslik, psixologiya, pedagogika muammolarini o'z ichiga olinishi ana shunday bilimlarni o'rganish insonni xush axloq, sadoqatli aqliy idrokni rivojlantirishini ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". –T. O'zb. nashriyoti,1999 y.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch".– T.:Ma'naviyat-2008 y.
3. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy inqirozi va O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish chora-tadbirlari".-Toshkent, 2009 y.
4. I.A.Karimov. "Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz". 9-tom, T.-O'zbekiston nashriyoti 2001 y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent –Ma'rifat gazetasi – 1998 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktyabrda chiqarilgan "O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirish qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi formani. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1995 y.
7. Abu Nasr al-Forobiy "Fozil odamlar shahri" -:T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993 yil.
8. O.Matyoqubova "Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida" T. 1986-yil.
9. O.Matyoqubova "Sayfiddin Urmaviyning tovush qatori haqida" O'zbekiston musiqasi nazariyasi, tarixi va ijrochiligi masalalari. T.1984 yil.
10. T.Pugachenkova, Rempel A. "O'rta Osiyo san'ati ocherki, qadimgi davr va O'rta asr" 1982 – yil.
11. H.Hamidov "Musiqa-qoshiqchilik madaniyatimiz tarixidan" T.O'qituvchi.1995
12. H.Hamidov "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". T.O'qituvchi.1996 y.
13. Yo'ldoshev S. "O'zbekistonda musiqiy ta'lim va tarbiyaning rivojlanishi" T.1978 y.
14. Yu.Rajabiy. "Musiqa merosimizga bir nazar". T.-:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-1963yil.
15. O.Ibrohimov, O.Yo'ldoshev. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. Toshkent.
16. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2003yil.
17. A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2002 yil.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakul'teti bitiruvchilari, 511100 - musiqiy ta'lim yo'nalishi musiqa nazariyasi va an'anaviy ijrochilik kafedrasining 2014 yil 27 mayda bo'lib o'tgan
№10 yig'ilish bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Samarqand shahri
27 may, 2014 yil.

Qatnashdilar:
Kafedra mudiri va barcha kafedra a'zolari.

K U N T A R T I B I :

Ikkinchi masala: IV kurs bitiruvchilari bakalavriat darajasidagi talabalarning bitiruv malakaviy ishlarini muhokama qilish va himoyaga tavsiya etish.

Kafedra mudiri katta o'qituvchi Sh.N.Mustafayev bitiruv malakaviy ishlarining himoyaga tavsiya etish maqsadida ularning hozirgi vaqtgacha bo'lgan tayyorgarligi haqida gapirdi. So'ngra bitiruv malakaviy ishlarning mualliflariga so'z berildi.

ESHITILDI: IV kurs bitiruvchilari Bobojonova Mavluda To'ymurodovna - «Jo'rsiz xorlar maktab o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalash vositalari» ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Boboyeva Sitora Amonovna - «Opera ijodiyotining yoshlar tarbiyasidagi o'rni» (M.Ashrafiy operalari misolida), ilmiy rahbar prof. M.Quronov, G'ofurova Nozigul Uchqunovna - «Samarqand musiqa o'quv dargohlarining rivojlanishi yoshlar tarbiyasida» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Oydinov Otabek Baxromovich «Litsey va kolledj o'quvchilarini tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ahamiyati», ilmiy rahbar prof.M.Quronov, Isayeva Sarvinoz Husenovna - «O'zbek kompozitorlari asarlarida Vatanparvarlik mavzularining yoritilishi» ilmiy rahbar prof. M.Quronov, Burxonov Muhammadbashir Hikmatullayevich - «Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini estetik shakllantirish» (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Djurayeva Orasta Axmadovna - «Musiqa san'ati orqali o'quvchi shaxsini sxloiy-estetik hislatlarini shakllantirish» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Karimov Alisher Odilovich - «O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiyolimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari» ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Qurbonova Feruza Hasanboy qizi "Shaxs kamolotini rivojlantirishida musiqa tarbiya nazariyasining o'rni" ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Xolboyev Ro'ziboy Eshmuratovich "Musiqa fol'klori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning o'ziga xosligi" (5-7 sinflar misolida) ilmiy rahbar dots. N.S.Qiyomov, Jumaboyeva Gulasal Xasanovna "Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida musiqa san'atining o'rni" ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Nurmuxammedov Bobur Anorboy o'g'li "Musiqa san'ati va estetik tarbiya muammolari" (kollejlarda misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Teshayev Zoxid Asqar o'g'li "Milliy qadriyatlar va musiqa san'atining rivoji" ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Umrzoqov Sayfiddin Iskandarovich "Mustaqillik yillarida musiqa madaniyati" (litseylar misolida) ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova, Asrorova Shaxnoza Shavkatovna "Umuminsoniy qadriyatlar tizimida musiqa san'ati" ilmiy rahbar dots. G.Q.Xurramova nomli ishlarning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mazmunlari haqida ma'lumotlar berildi.

SO'ZGA CHIQDILAR: katta o'qituvchi Sh.Mustafayev, dots. N.S.Qiyomov, dots. J.J.Kozimov, dots. G.Q.Xurramova, o'qituvchi M.A.Akramovalar Malakaviy bitiruv ishlarning barchasi talab darajasida bajarilganligi, bu ishlar nizom qoidalariga to'liq javob berishlari e'tirof etiladi. Ishlarni ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisobladilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI:

1. IV- kurs bitiruvchisi Karimov Alisher Odilovichning bitiruv malakaviy ishi to'g'risidagi kafedra a'zolarining bildirgan fikrlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bitiruv malakaviy ish to'g'risidagi ba'zi bir kamchiliklar Yakuniy Davlat attestatsiyasiga qadar bartaraf etilsin.
3. Karimov Alisherning malakaviy bitiruv ishi YaDA himoyasiga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

Sh.N.Mustafayev

Kotiba:

Xolmurodova S.

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat
ta'limi fa'kul'teti musiqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Karimov Alisher Odilovichning "O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy
olimlarning musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari" mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga Ilmiy rahbarning
XULOSASI**

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy musiqiy-ijtimoiy qarashlarni, qadriyatlarini keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish va xalqning madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish basqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz, o'tmishimizga, tilimizga bo'lgan hurmat-e'tiborni rivojlantirish, Vatanga muhabbat tuyg'ularini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi.

O'tmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hamda jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkir-allomalar, o'z davrining eng ilg'or kishilari hayotda, ularning ijodi, izlanish va ijtimoiy qarashlarida alohida o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asr davriga mansub bo'lgan va o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Hayyom,, Kavkabi, Darvesh Ali Changiylarning ijodlari, ular tomonidan avlodlarga qoldirgan qomusiy asarlari fikrimizning yorqin misolidir.

Bu esa O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyin yoshlar ma'naviyatini ko'tarish, ularda yuksak madaniyat sifatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash yo'lida, milliy san'atimiz durdonalarini ham chuqurroq o'rganish, musiqiy san'atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'laqonli va samarali foydalanish vazifasini yuklaydi.

Shuning uchun ham Karimov Alisher Odilovich tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishini tagallangan ish deb, dolzarbligi, maqsadi va vazifalari puxta va samarali amalga oshirilganligi, yozilish bayoni aniqligi bilan e'tiborlidir.

Bitiruv malakaviy ishda yoritilgan fikrlar komil inson tarbiyasiga molik bo'lib, ajdodlarimiz ijodini yuksaklarga ko'tarishdan iboratdir.

Karimov Alisher Odilovich tomonidan ajdodlarimiz merosini bitiruv malakaviy ish darajasiga olib chiqishi, muallif tomonidan bildirilgan fikrlar bitiruv malakaviy ishda o'z yechimini topganligi bilan ham qimmatlidir.

Bitiruv malakaviy ishda mavzuni chuqur o'rganish, foydalanilgan adabiyotlar bilan ishni, yig'ilgan fikrlarni umumlashtirish, xulosalar va tavsiyalar bilan asoslangan.

Bitiruvchi Karimov Alisherning bitiruv malakaviy ishini yozish va ishni o'z vaqtida tugallanishini qoniqarli deb hisoblayman.

Bitiruv malakaviy ishdan chiqarilgan xulosalar, tavsiyalar ham nazariy, ham amaliy qimmatga ega.

Bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xilosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Yakunlangan bitiruv malakaviy ish, bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi bilan ahamiyatlidir. Undan umumta'lim maktablari litsey va kollej o'qituvchilari, metodistlari foydalanishlari mumkin.

Men ilmiy rahbar sifatida Karimov Alisher tomonidan mustaqil tayyorlangan va yakunlangan ish sifatida uni YaDA da ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. N.S.Kiyamov

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fa'kul'teti musiqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Karimov Alisher Odilovichning "O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarning musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ushbu taqriz qilinayotgan bitiruv malakaviy ish o'rta asrlarda yashab ijod etib ketgan, o'zidan ko'plab nodir asarlarni qoldirib avlodlar e'tiborida tahlil qilinayotgan dolzarb va o'ta muhim masalaga qaratilgan. Bugungi kunda ajdodlar merosini o'rganish, yoshlarimizni kasb-hunarga o'rgatish, dunyoviy ilmlarni ularning ongu-shuuriga singdirish, shu bilan birga odobli, kamtarin, ochiq yuzli, didli, pok qalbli va albatta, yuksak madaniyatli insonlar qilib voyaga yetkazish davlat ahamiyatiga molik masalalardandir.

O'tmishimizga nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlod-ajdodlarimiz hayotida jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkir-allomalar, o'z davrining ilg'or kishilari hayotida, ularning ijodi, izlanish va qarashlarida alohida o'rin tutganligi ko'ramiz.

Shu nuqtaiy nazardan bitiruvchi Karimov Alisher odilovichning ushbu bitiruv malakaviy ishi O'rta asrlarda yashab, ijod qilib, avlodlarga qoldirgan qomusiy asarlarida bayon etilgan fikrlar, ijtimoiy-pedagogik qarashlarni qiyosiy tahlil qilganligi, ishda samarali fikr-mulohazalarni umumlashtirib bitiruv malakaviy ish darajasiga olib chiqqanligi bilan e'tiborlidir. Ishni yozishda Karimov Alisher ajdodlarimizning musiqiy-ijtimoiy qarashlarini o'rganishda mavzuni ilmiy tadqiqot qilgan, asosli va mantiqli fikrlar chiqarilganligi, Sharq allomalarining musiqa va axloq haqidagi fikrlarini o'rgangan, yig'ilgan materiallarni tartibga solgan va asosli xulosalar chiqarganligi bilan qimmatlidir.

Karimov Alisher tomonidan tayyorlagan, va yakunlangan bitiruv malakaviy ish amaliyotda joriy etish uchun ahamiyatlidir. Ishda yoritilgan fikrlar, xulosalar musiqa san'atini rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni, unda yoritilgan fikrlar qo'yilgan talablarga javob beradi. Ishni to'liq tugallangan ish deb hisoblayman. Bitiruv malakaviy ishning bayoni, tili va uslubi ijobiy baholanishga loyiq.

Karimov Alisher tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men taqrizchi sifatida ushbu ishni tugallangan mustaqil yozilgan bitiruv malakaviy ish deb uni YaDA da ochiq himoyaga tavsiya etaman.

**Samarqand san'at kolleji
katta o'qituvchisi:**

N.B.Hamroqulov

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fa'kul'teti musiqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Karimov Alisher Odilovichning "O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarining musiqiy-ijtimoiy pedagogik qarashlari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy musiqiy-ijtimoiy qarashlarni, qadriyatlarini keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish va xalqning madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish basqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida, milliy ong, g'urur, tariximiz, o'tmishimizga, tilimizga bo'lgan hurmat-e'tiborni rivojlantirish, Vatanga muhabbat tuyg'ularini yoshlarda qaror toptirish uchun xizmat qiladi.

O'tmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar qadimiy san'at ekanligini, uni avlodu-ajdodlarimiz hamda jahonga nom taratgan olimu-fozillar, mutafakkir-allomalar, o'z davrining eng ilg'or kishilari hayotda, ularning ijodi, izlanish va ijtimoiy qarashlarida alohida o'rin tutganligini ko'ramiz. O'rta asr davriga mansub bo'lgan va o'z ilmlari, kashfiyotlari bilan Sharqni jahonga tanitgan Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Hayyom, Kavkabi, Darvesh Ali Changiylarning ijodlari, ular tomonidan avlodlarga qoldirgan qomusiy asarlari fikrimizning yorqin misolidir.

Shu nuqtaiy nazardan bitiruvchi Karimov Alisher odilovichning ushbu bitiruv malakaviy ishi O'rta asrlarda yashab, ijod qilib, avlodlarga qoldirgan qomusiy asarlarida bayon etilgan fikrlar, ijtimoiy-pedagogik qarashlarni qiyosiy tahlil qilganligi, ishda samarali fikr-mulohazalarni umumlashtirib bitiruv malakaviy ish darajasiga olib chiqqanligi bilan e'tiborlidir. Ishni yozishda Karimov Alisher ajdodlarimizning musiqiy-ijtimoiy qarashlarini o'rganishda mavzuni ilmiy tadqiqot qilgan, asosli va mantiqli fikrlar chiqarilganligi, Sharq allomalarining musiqa va axloq haqidagi fikrlarini o'rgangan, yig'ilgan materiallarni tartibga solgan va asosli xulosalar chiqarganligi bilan qimmatlidir.

Karimov Alisher tomonidan tayyorlagan, va yakunlangan bitiruv malakaviy ish amaliyotda joriy etish uchun ahamiyatlidir. Ishda yoritilgan fikrlar, xulosalar musiqa san'atini rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni, unda yoritilgan fikrlar qo'yilgan talablarga javob beradi. Ishni to'liq tugallangan ish deb hisoblayman. Bitiruv malakaviy ishning bayoni, tili va uslubi ijobiy baholanishga loyiq.

Karimov Alisher tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ish ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men taqrizchi sifatida ushbu ishni tugallangan mustaqil yozilgan bitiruv malakaviy ish deb uni YaDA da ochiq himoyaga tavsiya etaman.